

M. SH. ABDULLAYEVA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA
MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA
MISOL VA MASALALAR YECHISH**

**(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari uchun
uslubiy qo'llanma)**

Andijon – 2015

UO'K: 372.851.(076.1)

KBK: 22.12

A - 15.

Математика фанлари
ўқитиш

Ushbu Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda misol va masalalar yechish nomli uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinflari uchun matematikadan o'quv dasturiga mos keladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma Buloqboshi pedagogika ijtimoiy-iqtisodiy kolleji ilmiy kengashining 2015-yil 4-sentabrdagi (bayon № 09/15) yig'ilishida muhokama etildi hamda Andijon viloyati hokimligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi o'quv-metodik Kengashi yig'ilishidagi 9/2-sonli bayonnomasiga asosan chop etishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi: M. Sh. Abdullayeva,
Buloqboshi pedagogika ijtimoiy-iqtisodiy kolleji 2-bosqich o'quvchisi

Taqrizchilar: A. Axlimirzayev,
Andijon Davlat universiteti matematika kafedrasida dotsenti
R. Saidova,
Buloqboshi tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.


A -15. Abdullayeva M. «Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda misol va masalalar yechish». Uslubiy qo'llanma. – “Andijon nashriyot-matbaa” MCHJ, 2015-yil. 62 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanmada 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlar, ularning yozilishi va o'qilishi hamda ular bilan bajariladigan qo'shish, ayirish amallari yetarlicha masala va misollar ko'rgazmali ravishda yechimlari bilan berilgan. Bundan tashqari qo'llanmada o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun ham yetarlicha masala va misollar berilgan. Ushbu uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinf o'qituvchilari va o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan undan universitetlarning boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-4407-9-1

© M. Abdullayeva, 2015.

© “Andijon nashriyot-matbaa”
MCHJ, 2015



10 43824
091

SO‘Z BOSHI

Mustaqil davlatimizning taraqqiyoti bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ma'rifiy sohalardagi katta islohotlar bilan bog'liq. Shu islohotlar doirasida mamlakatimizda juda katta ishlar amalga oshirildi. Dunyo hamjamiyatida "O'zbek modeli" deb nom qozongan, mamlakatimizni islox etish va modernizatsiya qilish yoli naqadar to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Islohotlardan ta'lim sohasidagi islohotlar ularning asosini tashkil etadi desak, xato bo'lmaydi. Zero, ta'lim olib kelayotgan yosh avlodning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan birga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ham asosiy manba hisoblanadi.

Ayni paytda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi – yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang'ich sinf davridir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda barcha fanlarni, jumladan, matematikani o'qitilishiga katta ahamiyat berilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirish uchun eng avvalo, birinchi sinfda dars berish uchun oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlarni jalb qilish hamda o'quv jarayonini sifatli va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashga qaratish kerak. Zero, o'quv adabiyotlari ta'lim sifatini oshirish va optimallashtirishda talim sohasi ishtirokchilari uchun asosiy manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha darsliklarni yangi avlodi yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Lekin bugungi kunda o'quv jarayonini to'laonli tashkil qilishda darsliklarning o'zi yetarli emas. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonida DTS asosida yaratilgan darsliklar bilan birga boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan turli ustubiy qo'llanmalardan foydalanishlari kerak. Chunki darsliklar ta'lim jarayonining samaradorligini kafolatlovchi manba hamda vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi va qadimdan bunday manba ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy qo'llanma bo'lib hisoblangan. Ustubiy qo'llanmalarda esa fan tarkibiga kiruvchi mavzularni o'quvchilarga sodda va tushunarli tilda yetkazishning yo'llari yoritiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha, jumladan, matematika fani bo'yicha ustubiy qo'llanmalar yaratish va ulardan amalda foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Muallif tomonidan yozilgan ushbu ustubiy qo'llanmadan umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinfida matematikani o'qitish jarayonida qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.


1-§ BIRINCHI O'NLIK

1. Rasmga qarang va savollarga javob bering: Bog'da nechta o'rindiqli bor? Birinchi o'rindiqlida qancha bola o'tiribdi? Ulardan o'g'il bolalar qancha?




Qiz bolalar qancha? Ikkinchi o'rindiqlida qancha bola o'tiribdi? Uchinchi o'rindiqlida qancha bola o'tiribdi? Uchala o'rindiqlidagi hamma qiz bolalar qancha? Uchala o'rindiqlidagi hamma o'g'il bolalar qancha? O'rindiqlidagi hamma bolalar-chi?

2. Sanang. Sanashni kitobdan boshlang: Narsalar nechta? Sanashni albomdan boshlash mumkinmi? Sanang. Narsalar nechta?



3. Sanang, rasmini chizing: Har bir to'plamda qancha shakl borligini raqamlar bilan yozing.



4. Sanang: birinchi, ikkinchi, ..., ..., ..., oltinchi, ..., ..., ..., o'ninchi.



5. Katakalar bo'yicha rasm chizing: chapga – katta to'rtburchak rasmini, o'ng tomonga – kichkina to'rtburchak; kichkina uchburchak chizing, yoniga katta uchburchak chizing.

6. O'qing va yozing: 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10
10,9,8,7,6,5,4,3,2,1

7. Sonlarni soʻzlar bilan yozing:

1 – bir

3 - ...

5 - ...

2 - ...

4 – toʻrt

6 - ...

7 - ...

9 - ...

8 - ...

10 - ...

8. Soʻzlar bilan berilgan quyidagi sonlarni yozing: besh, toʻqqiz, ikki, yetti, oʻn.

9. Qaysi sonlar yetishmayapti? Ularni ortib borish va kamayish tartibida yozing.

1, ., 3, 4, ., ., 7, ., 9, .,

10, ., ., 7, ., 5, ., 3, 2, .,

10. 9, 6, 5, 1, 3, 7, 4, 10, 2, 8 sonlarini 1 dan 10 gacha tartib bilan yozing.

11. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 qatordan 6 sonini koʻrsating. Oltiga birni qoʻshing qanday son hosil boʻladi? Bu son sanashda qaysi sondan keyin aytiladi? Qatorda 8, 2, 9, 5 sonlardan keyin keladigan sonlarni qanday hosil qilish mumkin?

12. 1 dan 10 gacha sonlarni yozing. 10 sonini koʻrsating. 10 dan 1 ni ayirsak qanday son hosil boʻladi? Bu sonni sanashda qaysi sondan keyin aytamiz? Bu sonni sanashda qaysi sondan oldin aytamiz?

13. Daftaringizga nuqta qoʻying. Undan nechta toʻgʻri chiziq oʻtkazish mumkin? Chizgʻich bilan oʻtkazing. Daftaringizga ikki nuqta qoʻying. Ikki nuqta orqali nechta toʻgʻri chiziq oʻtkazish mumkin?



14. 10 gacha toʻgʻri va teskari tartibda bittalab sanang:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10;

10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1.

10 gacha toʻgʻri va teskari tartibda ikkitalab sanang:

2, 4, ., ., ., .;

10, 8, ., ., ., .

9 gacha toʻgʻri va teskari tartibda uchtalab sanang:

3, ., ., .;

9, ., ., .

10 gacha toʻgʻri va teskari tartibda beshtalab sanang:

5, ., .;


10, ..

15. Sanashda 2 sonidan keyin aytiladigan uchta sonni ayting. Bu sonlar 2 dan kattami yoki kichikmi? 7 sonidan oldin turgan to'rtta sonni ayting. Bu sonlar 7 sonidan kattami yoki kichikmi?

16. Pufaklarni 2 talab 8 gacha sanang. Pufaklar 10 ta bo'lishi uchun yana nechta pufak qo'shish kerak?

17. Savollarga javob bering: qaysi biri yo'g'on: arqonmi yoki ip? Qaysi biri og'ir: bitta bodringmi yoki bir chelak bodring?

18. Suratda qancha qiz bolani ko'ryapsiz? O'g'il bolalar qancha? 5 juft bo'lishi uchun yana qancha qizlarni chaqirish kerak?



19. 9, 2, 1, 8, 5, sonlarini kichigidan boshlab eng kattasigacha yozing.

4, 7, 10, 6, 3 sonlarini eng kattasidan boshlab eng kichigigacha yozing.

20. Misollarni yeching:

| | | | | |
|--------|--------|--------|--------|---------|
| $7+2=$ | $4+3=$ | $5+3=$ | $8+1=$ | $6+4=$ |
| $2+7=$ | $3+4=$ | $3+5=$ | $1+8=$ | $4+6=$ |
| $9-2=$ | $7-3=$ | $8-3=$ | $9-1=$ | $10-4=$ |
| $9-7=$ | $7-4=$ | $8-5=$ | $9-8=$ | $10-6=$ |

21. Masala.

Masalaning sharti. Hayvonot bog'idagi tomosha vaqtida 5 ta o'rgatilgan sher tumbalarga sakrab chiqdi. 4 ta sher esa maydonda yotganicha qoldi.

Masalaning savoli. Tomoshada hammasi bo'lib nechta sher qatnashdi?



Masalaning yechilishi. $5sh+4sh=9sh$.

Masalaning javobi. Tomoshada 9 ta sher qatnashgan.

Masalalarni yeching.

22. Navbatchi Nodira stolga dasturxon yozib, ovqatga tayyorgarlik ko'ryapti. Avval u 5 ta qoshiq, keyin yana 3 ta qoshiq olib keldi. Nodira hammasi bo'lib nechta qoshiq olib kelgan?

23. To'lqin 6 ta tillaqo'ng'iz tutib qutichaga soldi. 2 ta qo'ng'iz uchib ketdi. Qutichada nechta tillaqo'ng'iz qolgan?

24. Zalda 10 ta yoritkich yonib turgan edi. 2 ta yoritkich kuyib qoldi. Zalda nechta yoritkich yonib turibdi? Masalaning javobini ayting.

25. Yuqoridagi kitob javonida 4 ta kitob bor, pastkisida ham shuncha kitob bor. Ikkala kitob javonida nechta kitob bor?

26. Tashlab ketilgan sonlarni o'rniga qo'ying: 3, . . , 5, 6, 7, . . , 9. Tashlab ketilgan sonlardan qaysinisini kichik? Sanashda qaysi sonni oldin aytamiz?

27. Daftaringizga quyidagi tarqatmalarni rasmini soling. Har bir tarqatmadagi ma'lum sonni qo'shing. Ularning yig'indisini 9 gacha to'ldiring:

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 3 | ? |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 4 | 2 | ? |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 0 | 7 | ? |
|---|---|---|

28. 8 ta qalamni ikkita qutichaga baravardan joylashtiring.

Bir olganda ikkita qalam oling, birini bitta qutichaga, ikkinchisini ikkinchi qutichaga soling. Bu qalamlarni ikkita qutichaga yana qanday joylashtirish mumkin?

29. Misollarni yeching. Qo'shish jadvalini eslang:

| | | | | |
|--------|--------|--------|--------|--------|
| $1+2=$ | $5+2=$ | $3+3=$ | $6+4=$ | $5+5=$ |
| $4+2=$ | $7+2=$ | $5+3=$ | $5+4=$ | $4+6=$ |
| $6+2=$ | $4+3=$ | $7+3=$ | $4+5=$ | $1+4=$ |
| $8+2=$ | $6+3=$ | $4+4=$ | $1+9=$ | $1+5=$ |
| $3+2=$ | $1+1=$ | $7+1=$ | $8+1=$ | $3+1=$ |
| $4+1=$ | $2+2=$ | $9+1=$ | $6+1=$ | $6+3=$ |

30. Siz bilan bir partada kim o'tirganini aytib bering? Sizning oldingizda kim o'tiradi? Sizning orqangizda kim o'tiradi? Siz o'tirgan qatorning birinchi partasida kim o'tiradi? Oxirgi partada-chi?

31. 10 ta olmani ikkita likopchaga qanday qo'yish mumkin?

32. Quyidagi tarqatmalarning rasmini daftaringizga chizing. Har bir tarqatmadagi ma'lum sonlarni qo'shing va ularning yig'indisini 10 gacha to'ldiring.

| |
|---|
| 2 |
| 4 |
| ? |

| |
|---|
| 3 |
| 7 |
| ? |

| |
|---|
| 1 |
| 5 |
| ? |

33. Ushbu ikki sondan qaysi biri kichik: 7 mi yoki 9, 5 yoki 1, 8 yoki 6, 10 yoki 2. Buni $<$ (kichik) belgisi yordamida mana shunday yozish mumkin?

$$6 < 8$$

34. Quyidagi berilgan sonlarning har biriga mos keluvchi sonni $<$ belgisi yordamida yozing.

$$8 \dots; \quad 4 \dots; \quad 7 \dots; \quad 3 \dots; \quad 5 \dots$$

35. Quyidagi ikki sondan qaysi biri katta: 10 yoki 1, 5 yoki 2, 3 yoki 6, 9 yoki 7. Buni $>$ (katta) belgisi bilan mana bunday yozishingiz mumkin:

$$9 > 7$$

36. Quyida berilgan sonlarning har biriga mos keluvchi sonni $>$ belgisi yordamida yozing:

$$2 \dots; \quad 5 \dots; \quad 8 \dots; \quad 4 \dots; \quad 6 \dots$$

37. $>$, $<$, $=$ belgilaridan kerakligini qo'ying:

6...4; 2...7; 10...9; 7...3; 8...8;

1...4; 9...10; 1...1; 2...8; 7...5.

38. Misollarni yeching.

5+3= 6+3= 7+3= 5+4= 8+2=

3+5= 3+6= 3+7= 4+5= 2+8=

8-3= 9-3= 10-3= 9-4= 10-2=

8-5= 9-6= 10-7= 9-5= 10-8=

Nima uchun har bir qatordagi dastlabki ikkita misolda yig'indilar bir xil?

Masalalarni yeching va ularning yechilishlarini tekshiring.

39. Avtobusga avval 8 nafar yo'lovchi, keyin esa 2 nafar yo'lovchi chiqdi. Avtobusga xammasi bo'lib qancha yo'lovchi chiqqan?

40. Avtobusda 9 nafar yo'lovchi bor edi. Bir bekatda 3 nafar yo'lovchi tushib qoldi. Avtobusda qancha yo'lovchi qolgan?


41. Daftar kataklari bo'yicha 3 ta katta olmani va yana shuncha kichik olmani rasmini chizing. Hamma olma nechta bo'ldi?

42. 2,7,5,4 sonlarining "qo'shnilari"ni yozing. Mana bunday:

6 8

43. Ushbu: 6, 10, 2, 8, 4 sonlarini qanday ikkita bir xil sondan tuzish mumkin?

44. 1) G'altak iplardan; 2) ignalardan; 3) angishvonalardan o'ntalikka nechta yetmaydi?



45. 7 sonini qanday ikkita sondan tuzish mumkin? 7 sonini ikkita bir xil sondan tuzish mumkinmi? 7 sonini qanday uchta sondan tuzish mumkin?

46. Quyidagi misollarni yechsangiz siz ayirish jadvalini takrorlagan bo'lasiz:

| | | | | |
|---------|--------|---------|---------|--------|
| $4-2=$ | $5-2=$ | $6-3=$ | $9-3=$ | $5-4=$ |
| $6-2=$ | $7-2=$ | $8-3=$ | $6-4=$ | $7-4=$ |
| $8-2=$ | $3-2=$ | $10-3=$ | $8-4=$ | $9-4=$ |
| $10-2=$ | $4-3=$ | $7-3=$ | $10-4=$ | $6-5=$ |

Masalalarni yeching.

47. Kitob 10 betlik, kitobning 6 beti o'qildi. Kitobning o'qilishi kerak bo'lgan yana necha beti qolgan?

48. 3 bilan 7 sonlarining yig'indisini topishga doir 1 ta masala tuzing va uni yeching. 5 va 4 sonlarining ayirmasini topishga doir 1 ta masala tuzing va uni yeching.

49. 6 dan kichik bo'lgan hamma sonlarni yozing. Sanashda siz bu sonlarni 6 sonidan oldin aytasizmi yoki keyin?

50. 4 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning hammasini yozing. Bu sonlar 4 dan kattami yoki kichik? Siz 4 dan katta nechta son yozdingiz?

51. Misollarni yeching:

| | | |
|----------|----------|----------|
| $5+2+1=$ | $4+2+2=$ | $4+3+2=$ |
| $7+0+1=$ | $1+3+2=$ | $5+1+3=$ |
| $1+0+9=$ | $8+1+1=$ | $6+4+0=$ |

52. Vasilada 7 ta oq va qora toshlar bor. Vasilada nechta oq tosh, nechta qora tosh bo'lishi mumkinligini ayting.

53. Kerakli sonni qo'ying: $2 < .$, $7 < .$, $6 > .$, $9 > .$

54. Guruh tarbiyalanuvchilaridan 8 nafari ovqatlanishi kerak. Navbatchi stolga 6 ta qoshiq qo'ydi. Navbatchi yana nechta qoshiq olib kelishi kerak?

55. Sinfda 4 tuvak gul bor. Bolalar yana shuncha tuvakda gul olib kelishdi. Sinfda nechta tuvakda gul bo'ldi?

56.


$9-2=$

$4+3=$



Rasmlar va misollar bo'yicha masalalar tuzing hamda ularni yeching.

57. O'ngga yoki chapga yetishmaydigan sonni mana bunday qo'ying.



58. 2 va 7, 4 va 3, 5 va 0, 1 va 9, 3 va 5, 4 va 1, 1 va 6, 0 va 8, 2 va 8, 3 va 3, 6 va 1, 2 va 5 sonlarining yig'indisini toping. Hisoblaganlaringizni tekshiring va daftaringizga yozing.

59. Har bir juftdagi misollarni taqqoslang. Ular nimasi bilan o'xshash, nimasi bilan farq qiladi?

$2+1=$ $3+2=$ $7+3=$ $5+4=$ $5+5=$

$2-1=$ $3-2=$ $7-3=$ $5-4=$ $5-5=$

60. Doktor Aybolit oldiga 2 ta kasal kuchuk, 4 ta quyon va ayiqpolvon keldi. Doktor Aybolit oldiga xammasi bo'lib nechta hayvon kelgan?

61. Likopda 6 ta olma bor. Ona likopga yana 2 ta nok va 1 ta apelsin qo'ydi. Ona nechta meva qo'ygan? (og'zaki javob bering). Likopda mevalar nechta bo'ldi?

62. Quyidagi misollarda qo'shish kerakmi yoki ayirish kerakmi? + yoki - ishorasini qo'ying. Misollar to'g'ri yechilganmi yoki notog'ri yechilganmi?

$4...5=9$

$10...6=4$

$1...2=3$

$7...5=2$

$7...7=0$

$0...8=8$

$9...9=0$

$5...0=5$

63. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

$6+4=$

$4-4=$

$3+5=$

$9-7=$

64. Misollarni yeching.

$5+3-2=$

$3+2-1=$

$4+4-3=$

$5+5-4=$

$3+3-2=$

$4+6-8=$

$5+3-7=$

$3+7-5=$

$4+0-3=$

$5+4-6=$

$3+0-2=$

$4+5-9=$

65. Kitobdagi qo'shimcha varaqdan 1 va 0 raqamlarini qirqib oling. Bu raqamlardan qanday son tuzish mumkin? Bu sonni daftaringizga yozing. 0 raqami nimani bildiradi? 1 raqami nimani bildiradi? Bu sonni cho'tga qanday qilib solish mumkin?

66. Misollarni yeching:

$9+1=$

$8+1=$

$5+1=$

$6+2=$

$7+3=$

$1+9=$

$1+8=$

$1+5=$

$2+6=$

$3+7=$

$10-1=$

$9-1=$

$6-1=$

$8-2=$

$10-3=$

$10-9=$

$9-8=$

$6-5=$

$8-6=$

$10-7=$

Har bir ustundagi misollarni taqqoslang. Bu misollarda qanday qiziq holni sezdingiz?

67. Daftar kataklari bo'yicha quyidagilarni rasmini chizing:

a) keng narvon rasmini chizing, yoniga tor narvon rasmini chizing;

b) chap tomonga past uychani o'ng tomonga baland uychani rasmini chizing.

68. Masala.

Quyidagi masalada yetishmaydigan sonlarni o'rniga qo'ying va masalani yeching.

Navbatchi bir to'p daftardan avval ... tasini, keyin yana ... tasini oldi. Navbatchi hammasi bo'lib nechta daftar olgan?

69. Masalaga savol qo'ying va uni yeching. Yosh tabiatshunos yetakchilar quyonlarga 5 qop sabzi va 2 qop karam sotib olishdi. Ular hammasi bo'lib qancha ozuqa sotib olishgan?

70. Misollarni yozib oling va ularni quyidagicha yeching:

$$2+4=6$$

| | | | | | | | | |
|-----------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Birinchi qo'shiluvchi | 2 | 9 | 1 | 8 | 4 | 0 | 3 | 7 |
| Ikkinchi qo'shiluvchi | 4 | 0 | 7 | 2 | 5 | 6 | 6 | 3 |
| Yig'indi | 6 | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

71. Nima uchun tenglik belgisi qo'yilgan:

$$7+2=2+7 \quad \text{va} \quad 6+1=1+6?$$

72. Chap tomonga 4 raqamini qo'ying. O'ng tomonga 6 raqamini qo'ying. Bu sonlarni qanday (+ yoki -) ishora bilan birlashtirish mumkin? Tuzilgan misolni yozing va uni yeching.

73. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{ccccc} 2+8= & 10-8= & 1+8= & 9-8= & 1+9= \\ 10-9= & 0+8= & 8-8= & 9+0= & 9-9= \\ 6+4= & 7-5= & 8+2= & 10-10= & 5+4= \\ 3-3= & 4+6= & 5-4= & 3+1= & 7-6= \end{array}$$

74. Aytib bering:

Kecha kunduzi siz nima qildingiz? Ertaga kechqurun nima qilasiz? Bugun ertalab nima qildingiz?

75. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{cccc} 3-3= & 7-7= & 8-8= & 1-1= \\ 2-2= & 5-5= & 6-6= & 4-4= \end{array}$$

Nima uchun bu misollarning hammasida bir xil javob chiqadi? 0 raqami nimani bildiradi?

76. Qaysi sonni qo'yish kerak? Misollarni yozing va yechimini tekshiring.

$$\begin{array}{cccc} 5+ \cdot =7 & 5+ \cdot =5 & \cdot +4=6 & 9- \cdot =7 \\ \cdot +2=9 & 5- \cdot =0 & \cdot -3=0 & 3- \cdot =3 \\ 4+ \cdot =4 & \cdot +3=7 & \cdot +1=9 & 6- \cdot =4 \\ \cdot +6=10 & \cdot -4=3 & \cdot -6=2 & 8- \cdot =5 \end{array}$$

77. Qanday amal ishorasini qo'yish kerak: + yoki -

$$\begin{array}{ccc} 2 \cdot 7=9 & 6 \cdot 4=10 & 7 \cdot 7=0 \\ 7 \cdot 2=9 & 4 \cdot 6=10 & 4 \cdot 2=6 \\ 9 \cdot 2=7 & 10 \cdot 4=6 & 8 \cdot 3=5 \\ 9 \cdot 7=2 & 10 \cdot 6=4 & 4 \cdot 5=9 \end{array}$$

78. Buvi shirinlik olib keldi. U birinchi nevarasiga 4 ta shirinlik berdi, ikkinchi nevarasiga esa 3 ta shirinlik berdi. Buvi nevaralariga nechta shirinlik berdi? Buvining nechta shirinlik olib kelganini bilish mumkinmi?

79. Yetakchilar maktab oldiga 10 tup terak ko'chati o'tqazishdi. 2 tup terak qurib qoldi. Necha tup terak ko'kargan?

80. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{lll} 5+2+1= & ; & 6+1+3= & ; & 8+0+2= & ; \\ 5+1+2= & ; & 3+6+1= & ; & 2+8+0= & ; \\ 8-1-2= & ; & 10-6-3= & ; & 10-2-8= & ; \\ 8-2-5= & ; & 10-1-6= & ; & 10-8-0= & ; \end{array}$$

81. Har bir juft misollarni taqqoslang. Ularning nimasi o'xshash? Nimasi bilan farq qiladi?

$$\begin{array}{llll} 4+1= & 5+3= & 7+2= & 6+4= & 3+3= \\ 4-1= & 5-3= & 7-2= & 6-4= & 3-3= \end{array}$$

82. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

$$10-8= \quad 2+7= \quad 8-4= \quad 5+1=$$

83. Bolalar qishki ta'tilda bir hafta va yana 3 kun oromgohda dam olishdi. Bolalar nechta kun dam olishgan?

84. Misollarni daftaringizga ko'chiring. Har bir misolga to'g'ri javobni o'ng tomondagi ustundan toping va uni daftaringizga yozing.

$$\begin{array}{ll} 6+2= & 5+2+3= \\ 9-7= & 8-6-1= \\ 5+0= & 4+0+4= \\ 8-8= & 10-3-1= \\ 5+5= & 4+2-6= \\ 4+5= & 5-5+7= \\ 3+0= & 3+4-5= \end{array}$$

85. Misollarni daftaringizga yozing va ularni yeching. Mana bunday:

$$5-2=3$$

| | | | | | | | | | |
|------------|---|----|---|---|---|---|---|---|----|
| Kamayuvchi | 5 | 10 | 7 | 6 | 9 | 4 | 8 | 3 | 10 |
| Ayriluvchi | 2 | 4 | 5 | 2 | 7 | 4 | 6 | 3 | 9 |
| Ayirma | 3 | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

86. Qancha chiqishini sanang.

$2 \text{ ta olma} + 2 \text{ ta olma} =$

$3 \text{ ta nok} - 1 \text{ ta nok} =$

$5 \text{ ta olxo'ri} + 1 \text{ ta olxo'ri} =$

$2 \text{ ta gilos} - 1 \text{ ta gilos} =$

$5 \text{ ta anor} + 5 \text{ ta anor} =$

$10 \text{ ta anjir} - 3 \text{ ta anjir} =$

87. Misollarni yeching. Javobida 2 chiqqan sonlarning tagiga chizing.

$7-7+4=$

$10-8+0=$

$10-8+1=$

$6-6+2=$

$2+6-4=$

$3+5-6=$

$7-4-1=$

$9-5-2=$

$8-5-3=$

$5+3-4=$

$5+1-6=$

$5+5-8=$

Masalalarga savol qo'ying, ularni yeching va yechimlarini taqqoslang.

88. Buvimda 8 kalava jun ip bor. Buvim 2 kalava jundan sharf to'qidi.

89. Buvimda 6 kalava ko'k va 2 kalava kulrang jun ip bor.

90. Mehnat darsi uchun 5 taxta oq qattiq va 3 taxta ko'k qattiq qog'oz berildi.

91. Mehnat darsi uchun 8 taxta qattiq qog'oz berildi. Bolalar 5 ta taxta qattiq qog'ozni ishlatishdi.

92. Sonlarning yig'indisi 5 ga teng. Qo'shiluvchilar qanday sonlar bo'lishi mumkin?

93. Yig'indisi 9 ga teng bo'lgan 2 ta son o'ylang. Siz qanday sonlar o'yladingiz?

94. Kerakli sonni qo'ying:

$4+ \cdot = 7$

$3+ \cdot = 9$

$2+ \cdot = 10$

$\cdot - 2 = 5$

$\cdot - 6 = 0$

$\cdot - 4 = 3$

$\cdot + 6 = 10$

$\cdot + 1 = 5$

$\cdot + 0 = 6$

$9- \cdot = 3$

$10- \cdot = 2$

$8- \cdot = 5$

95. Agar sinfda 10 ta stul bo'lib undan 2 tasi olib ketilgan bo'lsa, sinfda qancha stul qolgan?

96. Agar bolalarda 7 ta taxta bo'lib, qushlarga in qurishga 4 ta taxta ishlatishgan bo'lsa, bolalarda nechta taxta qolgan?

97. Agar hayvonot bog'ida 4 ta ayiq bolasi, 2 ta sher bolasi va 1 ta bo'ri bolasi bo'lsa, hayvonot bog'ida nechta yosh hayvonlar bor?

98. 3 ta katta o'yinchoq mashina va 5 ta kichik mashina haqida masala tuzing.

99. O'yinchoqlar haqida qo'shishga doir masala tuzing.

100. Valida 5 ta daftar bor edi. U maktabda o'qituvchisiga 2 ta daftar berdi. Valida nechta daftar qoldi?

NAZORAT ISHI.

1- variant

1. 6 dan 10 gacha va 9 dan 4 gacha hamma sonlarni tartib bilan yozing.

2. Qaysi son 8 dan kichik, ammo 6 dan katta?

3. Misollarni yeching:

$6+4=$

$8-8=$

$7+2-3=$

$4+6=$

$6+4=$

$9-9+8=$

$10-4=$

$7-5=$

$6+3-5=$

$10-6=$

$1+9=$

$4-4+1=$

4. Masala.

Dalada 4 ta traktor ishlayapti. Ularga yordamga avval 2 ta traktor, keyin 3 ta traktor keldi. Dalada ishlayotgan traktorlar nechta bo'ldi?

2- variant

1. Sanashda 6 sonidan keyin keladigan sonlarni, 9 sonidan oldingi sonlarni 4 va 2 sonlari orasida aytiladigan sonni yozing.

2. Qaysi son 7 dan kichik, ammo 5 dan katta.

3. Misollarni yeching.

$5+2=$

$10-4=$

$4-1+3=$

$7-3=$

$4+3=$

$2+6-1=$

$7-1=$

$8-2=$

$5+3-3=$

$3+5=$

$10-3=$

$9-1-6=$

4. Masala.

Bir to'pda 6 ta daftar bor. Shu daftarlar ichida bir chiziqliqli 3 ta. Katak daftarlar soni nechta?

METR, SANTIMETR

1. Sinfning uzunligini qadamlab o'lchang. Siz necha qadam sanadingiz? Sinfdagi boshqa bolalar necha qadam sanadi? Sinfning uzunligini qadamlab sanash qulaymi? Qadamlab o'lchashlarda bir xil son chiqadimi? Sinfning uzunligi aniq o'lchadimi?

| | |
|----------|----------------|
| 2015/104 | Alisher Navoiy |
| A6493 | nemidagi |
| | O'zbekiston MK |


2. Uzunlik, kenglik, balandlik va chuqurlikni qanday o'lchov bilan o'lchagan qulay? O'lchov aniq bo'ladimi?

Metr – uzunlik o'lchovi. “Metr” so'zi sonlar yoniga quyidagicha yoziladi: 1 m, 3 m, 9 m,

3. **Raqamlar bilan yozing:** besh metr, o'n metr, ikki metr.

4. Uyda qalin qog'ozdan, tasmadan metr yasang. Sinfdagi yog'och metrni qog'ozdan qilingan metr bilan, tasmadan qilingan metr bilan taqqoslang. Ularning hammasi bir xil uzunlikda bo'lishi kerak. Ularning uzunligi – 1m.

5. **Metr bilan yana nimalar o'lchanadi?**



6. **Daftaringizga yozing:**

Metr bilan: taxtaning uzunligi, xonaning uzunligi, ..., ko'chaning, daryoning, ... kengligi; xonaning, daraxtning, ... balandligi; quduqning, hovuzning, ... chuqurligi o'lchanadi.

7. Stolning balandligini o'lchang. Stolning balandligi metrdan ortiqmi yoki kammi? “Stolning balandligi taxminan bir metr” deyish mumkin. Bu holda: “Men stolning balandligini 1 metrgacha aniqlikda o'lchadim” deyiladi.

8. Sinf doskasining bo'yini va enini 1 m gacha aniqlikda o'lchang.

Yozing: doskaning bo'yi - ... m, doskaning eni - ... m.

Derazaning bo'yini va enini 1 m gacha aniqlikda o'lchang. Yozing: derazaning bo'yi - ... m, derazaning eni - ... m.


9. Sinfning bo'yi va enini 1 m gacha aniqlikda o'lchang. Yozing: sinfnig bo'yi - ... m, sinfnig eni - ... m.

10. O'rtog'ingizdan o'z bo'yingizni o'lchab qo'yishni iltimos qiling. Sizing bo'yingiz bir metrdan ortiqmi yoki kammi? "Mening bo'yim bir metrdan bir oz ortiq". Yoki: "Mening bo'yim bir metrga yaqin" deyish mumkin.


11. 2 m tasma, shnur, lenta, kanopni o'lchang.

12. Metr bilan bir bo'lak gazlamaning enini, bir parcha qattiq qog'ozning enini o'lchang. Yozing: gazlama bo'lagining eni-...m, bir parcha qattiq qog'ozning eni-...m.

13. Qaysi biri uzun: chang'i tayoqlarimi yoki metr? Chang'ilarmi yoki metrmi?



14. Qaysi biri qisqa: qalammi yoki metr? Mo'yqalammi yoki metr?



15. O'zingiz yasagan qog'oz metrni oling va uni uchlari ustma-ust tushadigan qilib ikki buklang. Har bir bo'lak metrning yarmi bo'ladi.

Bir metr ikkita yarim metr bo'ladi

16. Sinfdagi narsalardan bir metr yoki bir metrga yaqin uzunlikda bo'lganlarini ko'rsating.


17. Sinfdagi narsalardan yarim metr yoki yarim metrga yaqin bo'ladiganlarini ko'rsating.

18. Maktab koridorining uzunligini, sport zalining enini, eshikning balandligini, hovlidagi yo'lning enini, jo'yakning uzunligini yarim metrgacha aniqlikda o'lchang.

19. Hamma narsalarni ham metr bilan o'lchab bo'lavermaydi. Qalamning uzunligini, daftarnin enini, sanoq cho'pning uzunligini metr bilan o'lchab bo'lmaydi. Undan kichikroq o'lchov kerak bo'ladi. Bu o'lchov – santimetr.

Santimetr – bu uzunlik o'lchovi. Santimetr sonlar yonida quyidagicha yoziladi: 3 sm, 10 sm, 1sm.

20. Mana bunday chizg'ich yordamida santimetrlar bilan o'lchanadi.



21. Bitta shunday chizg'ich oling. Undan 1 sm, 5 sm, 10 sm ni ko'rsating.

22. Sanoq cho'pning uzunligini, gugurt qutisining bo'yini va o'chirg'ichning bo'yini chizg'ich yordamida o'lchang.

Yozing: sanoq cho'pning uzunligi-...sm, gugurt qutisining bo'yi-...sm, o'chirg'ichning bo'yi-... sm.

23. Pochta otkritkasining, konvertining va pochta markasining enini chizg'ich bilan o'lchang. Daftaringizga yozing.

24. Chiziqchaning uzunligini o'lchang va hosil qilingan sonni daftaringizga yozing.



25. Savollarga javob bering:

Metr bilan nimalar o'lchanadi? Santimetr bilan nimalar o'lchanadi?

Qaysi biri katta: metrmi yoki santimetrmi?

26. Qaysi biri uzun: qalammi yoki bir santimetrmi? Ruchkami yoki santimetrmi?



27. Qaysi biri qisqa: rangli qalamlar solingan qutichami yoki bir santimetrmi?

1 sm



28. Sonlarni taqqoslang va ularni $>$, $=$, $<$ belgilari bilan birlashtiring.

Mana bunday:

| |
|------------------------------|
| $8 \text{ m} > 8 \text{ sm}$ |
|------------------------------|

$3 \text{ m} \dots 8 \text{ m}$

$5 \text{ m} \dots 5 \text{ sm}$

$9 \text{ sm} \dots 9 \text{ sm}$

$10 \text{ sm} \dots 10 \text{ m}$

$7 \text{ sm} \dots 7 \text{ m}$

$1 \text{ m} \dots 10 \text{ m}$

$3 \text{ sm} \dots 4 \text{ sm}$

$8 \text{ m} \dots 8 \text{ sm}$

$7 \text{ sm} \dots 7 \text{ m}$

$3 \text{ sm} \dots 4 \text{ sm}$

29. Misollarni yeching.

$3 \text{ m} + 3 \text{ m} =$

$7 \text{ sm} - 4 \text{ sm} =$

$6 \text{ m} + 4 \text{ m} =$

$8 \text{ m} - 8 \text{ m} =$

$2 \text{ sm} + 2 \text{ sm} =$

$9 \text{ m} - 5 \text{ m} =$

30. Bir o'ramda 10 m ko'k sim bor, ikkinchisida shuncha qizil sim bor. Ikkinchi o'ramda necha metr qizil sim bor?

31. Qizcha 3 m oq tasma va 2 m jigarrang tasma sotib oldi. Qizcha hammasi bo'lib necha m tasma sotib olgan.

32. 3 metr uzunlikda ip o'lchang. Undan 1 m ni qirqib oling. Necha metr ip qoladi?

33. Vali qattiq qog'ozdan 2 ta xatcho'p tayyorladi. Birinchi xatcho'pning uzunligi 6 sm, ikkinchisining uzunligi 4 sm. Vali qanday uzunlikdagi qattiq qog'oz ishlatgan.

34. Yelkanli qayiqni yasash uchun Malik 10 sm uzunlikdagi sim oldi. U faqat 9 sm sim ishlatdi. Malikda necha sm sim qoldi?

35. Karim to'pni 10 sm ga otmoqchi bo'ldi, ammo koptok mo'ljalga 2 m yetmadi. Karim koptokni necha metrga otgan?

36. Misollarni yeching:

$$10 \text{ m} - 8 \text{ m} + 1 \text{ m} =$$

$$6 \text{ m} + 3 \text{ m} - 7 \text{ m} =$$

$$9 \text{ m} - 4 \text{ m} + 4 \text{ m} =$$

$$6 \text{ sm} + 2 \text{ sm} - 8 \text{ sm} =$$

$$10 \text{ sm} - 10 \text{ sm} + 4 \text{ sm} =$$

$$6 \text{ m} + 1 \text{ m} - 7 \text{ m} =$$

37. Chizg'ich bilan daftaringizdagi ikkita katakning uzunligini o'lchang. Yoziq: ...sm. Daftaringizdagi ikkita katakning uzunligini taxminan 1 sm deyish mumkin.


38. Daftarning kataklari bo'yicha bir nechta to'g'ri to'rtburchak va kvadratlar chizing. Har bir figuraning bo'yi va enini daftar kataklari bo'yicha taxminan aniqlang. O'lchab tekshiring.

39. Partaning, eshikning, shkafning bo'yini ko'z bilan chamalab o'lchang. O'lchaganlaringizni to'g'ri - noto'g'riligini metrli chizg'ich yoki ruletka bilan tekshiring. Ko'z bilan chamalab o'lchashni va o'z o'lchashlaringizni tekshirishni o'rganing.




40. O'tirgan partangizdan o'qituvchining stoligacha, doskagacha bo'lgan masofani, qo'shni partagacha bo'lgan masofani ko'z bilan chamalab (1m gacha aniqlikda) o'lchang. Hisoblaganlaringizni to'g'riligini chizg'ich yoki ruletka bilan tekshiring.

TO'G'RI CHIZIQ. KESMA



1. Tortilib turgan ip nimaga o'xshaydi?



Mel surtilgan ipni doskaga yaqin qilib tortib, keyin qo'yib yuborilganda qoldirgan iz nimaga o'xshaydi?

Tarang tortilgan ip va mel surtilgan ipning doskada qoldirgan izi to'g'ri chiziqqa o'xshaydi.

2. Bir varaq qog'ozni buklang va bukilish chizig'i bo'ylab asta barmoqlaringiz bilan bosing. Keyin qo'g'ozni to'g'rilang. Qog'ozda iz qoladi, bu iz to'g'ri chiziqdir.

3. Sinf doskasida, derazada, eshikda to'g'ri chiziqlarni ko'rsating. Atrofimizdagi narsalarning yana qaysilaridan to'g'ri chiziqni ko'rsatish mumkin?

4. Chizg'ichni oling. Uni daftar ustiga qo'ying. Qalam bilan chiziq o'tkazing. Siz qanday chiziq o'tkazdingiz?

5. Daftaringizda chizg'ich bo'ylab yuqoridan pastga qarab, chapdan o'ngga qarab to'g'ri chiziqlar o'tkazing.


6. Rasmdan to'g'ri chiziqlarni ko'rsating.



7. Daftarga nuqta qo'ying. Bu nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazing. Bu nuqtadan yana to'g'ri chiziqlar o'tkazish mumkinmi? O'tkazing. Bitta nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

8. Daftarga ikkita nuqta qo'ying. Bu ikki nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazing. Bu nuqtalar orqali yana to'g'ri chiziq o'tkazish mumkinmi? Ikkita nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?


9. Daftarga ikkita nuqta qo'ying. Ularni chizg'ich yordamida tutashtiring. Quydagicha:




Bu to'g'ri chiziq kesmasidir. Kesma deyish ham mumkin. Siz tutashtirgan nuqtalar kesmaning uchlari deyiladi.

10. Daftaringizga ikkita nuqta qo'ying. Ularni tutashtiring. Bu kesma. Bu nuqtalar orqali yana kesma o'tkazish mumkinmi?

11. Kesmalarni chizg'ich yordamida ulash mumkin. Santimetrlarni noldan boshlab sanash kerak. Kesmani o'lchashda chizg'ichni mana bunday qo'ying:




12. Bu kesmalarni chizg'ich bilan o'lchang va ularni tagiga uzunliklarini yozib qo'ying. Qanday o'lchaganingizni aytib bering.



13. Ma'lum uzunlikdagi kesmalarni chizg'ich bilan chizish mumkin. 5 sm, 4 sm, 7 sm, 9 sm, 10 sm uzunlikdagi kesmalar chizing.

14. Kesmalarni kataklar bo'yicha chizish ham mumkin. Kataklar bo'yicha 3 ta kesma chizing: birining uzunligi 6 katak, ikkinchisining uzunligi 4 katak, uchinchisining 8 katak bo'lsin. Har bir kesmaning uzunligini chizg'ich bilan o'lchang.

15. Mana bu kesmalarning uzunligini o'lchang va daftaringizga ham shunday kesmalarni chizing.





16. Uzunliklari turli xil bo'lgan bir nechta kesma chizing. Eng uzun kesmani ko'rsating, eng qisqa kesmani ko'rsating. Siz to'g'ri yoki noto'g'ri ko'rsatganingizni qanday qilib tekshirishingiz mumkin?

17. Yuqoridan pastga qarab 4 ta kesma chizing. Ularning uzunliklari 3 sm, 4 sm, 6 sm, 8 sm bo'lsin. Har bir kesmada nechta katak borligini aniqlang.

18. Chapdan o'ngga 3 ta kesma chizing. Ularning uzunliklari 5 sm, 7 sm, 9 sm bo'lsin. Har bir kesmada nechta katak bor.

19. Kesmalarni ko'z bilan chamalab taqqoslang. Eng uzun va eng qisqa kesmani ko'rsating. O'z javobingizning to'g'riligini chizg'ich bilan o'lchab tekshiring.



20. Bu geometrik shakllar nima deb ataladi? Uchburchakda nechta kesma bor? Kvadratda-chi? To'g'ri to'rtburchakda-chi?


21. Yuqoridan pastga qarab uzunliklari: 10 sm, 2 sm, 5 sm bo'lgan kesmalar chizing.

22. Rasmda teng kesmalar bormi? Ular qaysilar? Chizg'ich bilan tekshiring.




23. Uzunligi 3 sm bo'lgan kesma chizing. Uning tagiga shunday uzunlikdagi yana bitta kesma chizing. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

24. Kesmalarni qo'lda chizishni o'rganing. Ko'z bilan chamalab 3 sm, 5 sm, 10 sm uzunlikdagi kesmalar chizing. Ularni chizg'ich bilan tekshiring.




25. Narvonni chizish uchun nechta kesma kerak bo'lganini sanang. Shu narvonni o'z daftaringizga chizing.

26. Kema chizish uchun nechta kesma kerak? Uni daftaringizga chizing.



27. Kesmalarni o'lchang va xosil bo'lgan sonlarni taqqoslang. Eng qisqa kesma qaysi? Eng uzun kesma qaysi? Bir xil kesmalar bormi?



28. Misollarni yeching:

$$3 \text{ sm} + 5 \text{ sm} =$$

$$8 \text{ sm} - 2 \text{ sm} =$$

$$7 \text{ sm} + 3 \text{ sm} =$$

$$9 \text{ sm} - 9 \text{ sm} =$$

$$1 \text{ sm} + 8 \text{ sm} =$$

$$4 \text{ sm} + 2 \text{ sm} =$$


$$9 \text{ sm} + 1 \text{ sm} =$$

$$1 \text{ sm} + 6 \text{ sm} =$$

2-§ IKKINCHI O'NLIK

11 - 15 sonlar.

1. Bu 10 ta cho'p yoki o'ntalik cho'p.



2. 10 ta cho'p oling va ularni 1 ta qilib bog'lang. Yana 1 ta cho'p oling. Hamma cho'p nechta bo'ldi?

$$10+1=11$$




1 o'n va 1 ta bir – bu 11 sonidir. Bu sonni o'qing:

11 – o'n bir.

3. Oq bayroqchalar nechtaligini sanang: qora bayroqchalar nechta? Hamma bayroqchalar nechta? $10+1=11$. 11 - bu o'n va bir.



4. Bir satrga 11 sonini mana bunday yozing:



5. O'qing va yozing.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11

11, 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1.

6. 1, 3, 7, 5, 10 sonlarini cho'tga soling. Birliklar qaysi simga solinadi? Cho'tga 1 o'nlik tashlang. O'nliklar qaysi simga solinadi?

11 sonini cho'tga soling. Qaysi son katta 10 mi yoki 11 mi?

7. Cho'tda hisoblang:

$4+2+3=$

$7-2-3=$

$7+2-3=$

$3+2+4=$

$7-3-4=$

$8-3+2=$

$2+3+4=$

$7-5-2=$

$8-4+3=$

8. Mening qo'limda 6 ta qalam bor. O'ntalikkacha yana nechta qalam qo'shish kerak?

Tuxum, tugmachalar, kitoblar o'ntalab sanaladi. Yana nimalarni o'ntalab sanash mumkin?

9. Futbolchilar jamoasida 10 ta maydon o'yinchisi va 1 ta darvozabon bo'ladi. Futbolchilar jamoasida hammasi bo'lib nechta o'yinchi bor?

10. Archaga 11 ta shar osib qo'yildi. 1 ta shar tushib ketdi. Archada nechta shar qoldi?


11. Sanab ko'ring hamma qalamlar nechta?

$$11+1=12$$

$$10+2=12$$



Sanab ko'ring. Hamma qalamlar nechta?




12. Rasmda hammasi bo'lib nechta cho'p bor? Nechta cho'p dasta qilib bog'langan? Nechta cho'p bog'lanmagan? Bir o'nlik va 2 birlikdan iborat bo'lgan sonni ayting.

13. 12 sonini bir satrga quyidagicha yozing:

| | | | | |
|----|----|----|----|----|
| 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
|----|----|----|----|----|

14. Cho'tga 10 ta birlikni soling. Ularni qaysi simga solish kerak?

Cho'tga 1 ta o'nlikni soling. 1 ta o'nlikni qaysi simga solish kerak?



11 va 12 sonlarini cho'tga soling.

15. Namunaga qarab misollar tuzing va ularni yeching:

| | | | | |
|---------|--------|--------|--------|--------|
| $5+2=7$ | $4+3=$ | $6+4=$ | $8+2=$ | $9+1=$ |
| $2+5=7$ | ... | ... | ... | ... |
| $7-2=5$ | ... | ... | ... | ... |
| $7-5=2$ | ... | ... | ... | ... |

16. Qo'shimcha varaqdan 1, 0, 2 raqamlarini qirqib oling va ulardan 10, 11, 12 sonlarini tuzing.

17. Qanday son 1 o'nlikdan, 1 o'nlik va 1 birlikdan, 1 o'nlik va 2 birlikdan tuzilgan? Bu sonlarni yozing va ularni cho'tga soling.

Quyidagi sonlarni $>$, $=$, $<$ belgilari bilan birlashtiring:

11 ... 11; 11 ... 12; 12 ... 10.

18. 1 dan 12 gacha sanang va teskari tartibda 12 dan 1 gacha sanang. 7 dan 20 gacha sanang va teskari tartibda 20 dan 7 gacha sanang.

19. Qaysi son 11 dan 1 ta ortiq? 11 dan keyin qaysi son keladi? Qaysi son 12 dan 1 ta kam? 12 sonidan oldin qaysi son bo'lgan? 10 bilan 12 sonlari orasida qaysi son turadi?

20. Ikki ta tokchada 10 tadan daftar bor edi. Yuqoridagi tokchadan 2 ta daftar olindi. Qaysi tokchada kam daftar qoldi.

21. Uzunliklari 10 sm, 11 sm va 12 sm bo'lgan kesmalar chizing. Bu kesmalardan qaysinisi eng uzun? Qaysinisi eng qisqa?

22. 12 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor? 12 sonini yozish uchun nechta raqam kerak? Har bir raqam nimani bildiradi?

23. 1 ta o'ntalik cho'p oling va yana 3 ta cho'p oling.

Qo'lingizda hammasi bo'lib nechta cho'p bor?

$$10+3=13$$

12 ta kubik va yana 1 ta kubik qo'ying. Kubiklar nechta bo'ldi?

$$12+1=13$$

13 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor?

24. Bir satrga 13 sonini quyidagicha yozing:

| | | | | | |
|----|----|----|----|----|----|
| 13 | 13 | 13 | 13 | 13 | 13 |
|----|----|----|----|----|----|

25. Uchta son ayting, sanaganda ular 8 dan keyin, 10 dan keyin keladigan bo'lsin. Uchta son ayting, sanaganda ular o'n, o'n uchdan oldin aytiladigan bo'lsin.

26. Daftaringizga yozing: 11-o'n bir, 12- o'n ikki, 13-o'n uch.

27. Chap tomonga 1 raqami yozilgan tarqatmani qo'ying, o'ng tomonga 3 raqami yozilgan tarqatmani qo'ying. Qanday son hosil bo'ldi? Bu sonda nechta o'nlik bor? Nechta birlik bor? Bu sonni daftaringizga yozing. 11 sonini hosil qilish uchun qanday raqamlarni qo'yish kerak? 12 sonini qanday raqamlar bilan yozish mumkin? 10 sonini-chi?

28. Daftarning kataklari bo'yicha 11 katakli bitta chiziq, 13 katakli boshqa bir chiziq chizing. Qaysi chiziq uzun? Qaysinisi qisqa?

29. Qaysi son bir o'nlik va ikki birlikdan tuzilgan? 1 o'nlik va 1 birlikdan tuzilgan. 1 o'nlikdan tuzilgan. 1 o'nlik, 3 birlikdan tuzilgan.

Cho'plarni olib, mana bunday qiling:



Sonlarni yozishda birliklar o'ng tomondan birinchi o'ringa, o'nliklar esa o'ngdan ikkinchi o'ringa yoziladi. Agar birlik bo'lmasa u holda o'ng tomondan birinchi o'ringa 0 yoziladi.

Masalan: 10

30. O'qing va yozing:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13
13, 12, 11, 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1

31. Misollarni yeching:

$10+1=10+2=$ $11+1=$ $10+3=$ $12+1=$
 $11-1=$ $12-2=$ $12-1=$ $13-3=$ $13-1=$

32. Bizning ko'chada o'n qavatli uy qurilmoqda. Uning yetti qavati bitdi. Yana necha qavat qurilishi kerak?

33. Xokkey o'yini vaqtida "Raketa" jamoasi raqib darvozasiga 10 ta shayba kiritdi, "Dinamo" jamoasi esa faqat 3 ta shayba kiritdi. Qaysi jamoa yutgan? O'yin davomida hammasi bo'lib nechta shayba kiritilgan?

34. Ikki sonning yig'indisi 13. Qo'shiluvchilarning biri 10. Ikkinchi qo'shiluvchi nimaga teng?

35. Kitobni o'qib, bir qarang-chi 12-betdan keyin nechanchi bet kelar ekan, 12- betdan oldingisi nechanchi bet ekan? 11 va 13-betlar orasida nechanchi bet bor?

36. 11, 12, 13 sonlarini cho'tga soling. O'nliklar qaysi simga solinadi? Birliklar qaysi simga solinadi?

37. 6 dan 13 gacha, 7 dan 12 gacha, 1 dan 13 gacha, 2 dan 11 gacha, 13 dan 5 gacha, 11 dan 8 gacha, 10 dan 1 gacha sanang.

38. Yetishmagan sonlarni ayting:

1, ., 3, 4, ., 6, 7, 8, ., 10, ., 12, .,

13, ., 11, ., 9, ., ., ., 5, ., ., 2, .

39. Misollarni yeching:

4 so'm+6 so'm= 10 so'm-5 so'm=

7 so'm+3 so'm= 9 so'm-8 so'm=

5 so'm+5 so'm= 10 so'm-4 so'm=

10 so'm+1 so'm= 13 so'm-3 so'm=

10 so'm+2 so'm= 11 so'm-1 so'm=

40. Uzunligi 2 sm va 12 sm bo'lgan kesmalar chizing. Qaysi kesma uzun? Qaysinisi qisqa?

41. O'nta cho'p oling. Ularni bog'lang. Yana 4 ta cho'p qo'shing. Sizing qo'lingizda nechta cho'p bo'ldi? Misol tarzida yozing: $10+4=$

42. 13 ta kubik va yana 1 ta kubik qo'ying. Hamma kubiklar nechta?

43. 14 sonida nechta o'nlik bor?

Nechta birlik bor?

Yozing: 11 – bu 1 ta o'nlik, 1 ta birlik,

12 – bu ... o'nlik, ... birlik,

13 - bu ... o'nlik, ... birlik,

14 – bu ... o'nlik, ... birlik.

44. Cho'tga 1 o'nlik, 4 birlik soling. Siz qanday sonni cho'tga soldingiz?

45. 1 dan 14 gacha va teskarisiga 14 dan 1 gacha sanang. Sanaganda aytgan sonlaringizni yozing.

46. 11 sonidan keyin ketma-ket keladigan uchta sonni ayting va cho'tga soling.

14 sonidan oldin kelgan uchta sonni ketma-ket ayting va cho'tga soling.

10 soni bilan 14 soni orasidagi sonlarni ayting va cho'tga soling. Bunday sonlar nechta?

47. 1 dan 9 gacha bo'lgan hamma sonlarni yozing. Har bir sonni yozish uchun nechta raqam (belgi) kerak bo'ldi?

Yozilishi uchun bitta raqam (belgi) kerak bo'ladigan sonlar bir xonali sonlar deyiladi.

48. 5 ta bir xonali son yozing.


49. 10 dan 14 gacha bo'lgan sonlarni yozing. Har bir sonni yozish uchun nechta raqam (belgi) kerak bo'ldi?

Yozilishi uchun ikkita raqam (belgi) kerak bo'ladigan sonlar ikki xonali sonlar deyiladi.

50. O'zingiz bilgan hamma ikki xonali sonlarni yozing.



51. Partaga 13 ta doiracha qo'ying. Doirachalar 14 ta bo'lishi uchun nima qilish kerak? 14 ta doiracha qo'ying. Doirachalar 13 ta bo'lishi uchun nima qilish kerak?

52. Kitob javonida 6 ta kitob bor? Kitob javonida 13 ta kitob bo'lishi uchun yana nechta kitob qo'yish kerak? Endi 12 ta kitob qolishi uchun nechta kitob olish kerak?



53. O'nta cho'p oling va ularni birga bog'lang. O'nta cho'p bog'lamiga yana 5 ta cho'pni qo'shing. Hamma cho'plar nechta?

54. Nechta o'ntalik tuxum bor? Misol tarzida yozing: $10+5=?$



55. 14 ta qizil doiracha va bitta ko'k doiracha oling. Hamma doirachalar nechta? Misol tarzida yozing.

56. Bitta o'nlikdan iborat sonni ayting va yozing; bitta o'nlik va ikkita birlikdan; bitta o'nlik va to'rtta birlikdan; bitta o'nlik va uchta birlikdan; bitta o'nlik va beshta birlikdan iborat sonni ayting va yozing.

57. Sonlarni so'z bilan yozing: 15 - o'n besh, 14 - ..., 13 - ..., 12 - ..., 11 - ...

58. 14, 11, 13, 12, 15 sonlarida nechta o'nlik va nechta birlik bor? Bu sonlar nima deb aytiladi? Har bir sonni yozish uchun nechta raqam kerak bo'ladi? Bu sonlarni hammasini yozish uchun hammasi bo'lib nechta son kerak bo'lgan? Bir xil raqamlar nechta?

59. Bunday sanang: birinchi, ikkinchi, ..., o'n beshinchi. Qachon biz shunday sanaymiz?

60. Kerakli amal ishorasini qo'ying.

$$5...4=9$$

$$10...8=2$$

$$7...3=10$$

$$9...6=3$$

$$8...5=3$$

$$2...8=10$$

$$10...5=15$$

$$14...4=10$$

$$14...1=15$$

$$15...5=10$$

$$15...1=14$$

$$11...1=12$$

61. Maktab oshxonasida 10 ta stol bor edi. Yana 5 ta stol qo'yildi. Oshxonadagi stollar nechta bo'ldi?

62. Poyezd tarkibida 15 ta vagon bor. 5 ta vagon uzildi. Nechta vagon qoldi?

63. 10 va 11, 11 va 13, 10 va 15 sonlarini taqqoslang. Har bir juftdagi qaysi son katta? Har bir juftdagi qaysi son kichik? Har bir juftdagi sonlar orasiga $>$, $=$, $<$ belgilarini qo'ying. Taqqoslanayotganda sonlar teng bo'lishi uchun kichik songa nechta birlik qo'shish kerak va katta sondan nechta birlik ayirish kerak?

64 "Qo'shni" sonlarni yozing: . 2 . ; . 6 . ; . 9 . ; . 12 . ; . 14 . .

65. Misollarni yeching:

$5+5+1=$

$9+1+3=$

$4+6+5=$

$8+2+3=$

$7+3+1=$

$1+9+5=$

$11-1+5=$

$12-2-3=$

$13-3-4=$

$12-2-7=$

$14-4-6=$

$15-5-8=$

66. Maktab hovlisida 10 ta o'g'il bola qor kurayotgan edi. Ularga yordamga yana 4 ta qizlar qo'shildi. Hammasi bo'lib qancha bola qor kuramoqda?

67. Mehnat darsiga o'qituvchi 14 taxta rangli qog'oz tayyorladi. 4 taxta qog'oz xatcho'plar tayyorlash uchun ketdi. Nechta taxta rangli qog'oz qolgan?

68. Rasmlar va misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

$10+4=$

$14-4=$



69. Krujka va likopchalar baravardan bo'lishi uchun yana nechta likopcha qo'yish kerak?



70. Kerakli amal ishorasini qo'ying:

$15...5=10$

$10...4=14$

$13...3=10$


$10...1=11$

$12...2=10$

$10...5=15$

71. Daftaringizga xuddi shunday rasm soling, qo'shish va ayirishga doir misollar tuzing va ularni yeching. Mana bunday yozing:

$$10+1= \qquad 11-1=$$



Shu topshriqni 12, 13, 14, 15 sonlari bilan ham mustaqil bajaring.

72. 15 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor? Uni yozish uchun nechta raqam kerak? Bunday sonlarni biz nima deb ataymiz? Har bir raqam nimani bildiradi? O'nliklarni qaysi o'ringa yozamiz? Birliklarni qaysi o'ringa yozamiz?

11, 12, 13, 14 sonlarini olib savollarga javob bering.

73. Kerakli sonlarni qo'ying va misollarning to'g'ri yoki noto'g'ri yozilganligini tekshiring

$7+ \cdot =10$

$10- \cdot =8$

$10+ \cdot =13$

$\cdot -6=10$

$\cdot -3=6$

$\cdot +1=11$

$9+ \cdot =10$

$8- \cdot =4$

$10+ \cdot =14$

$\cdot +4=10$

$\cdot -6=4$

$\cdot +5=15$

74. Har bir juftdagi sonlarni taqqoslang: 7 va 5, 9 va 9, 10 va 12, 15 va 15, 15 va 13, 11 va 14. Har bir juftdagi katta sonni va kichik sonni ayting. Katta sonda nechta ortiqcha birlik bor? Kichik sonda nechta birlik yetishmaydi?

75. Qo'shimcha varaqdan 0, 1, 2, 3, 4, 5 raqamlarini qiyib oling. Bu raqamlardan 10 dan 15 gacha sonlarni tuzing. Har bir sonni tuzish uchun nechta raqam kerak?

76. Avtomobil qo'yish joyida 10 ta mashina bor edi. Yana 3 ta mashina keldi. Avtomobil qo'yish joyidagi mashinalar nechta bo'ldi?

77. Avtomobil qo'yish joyida 13 ta mashina bor edi. 3 ta mashina chiqib ketdi. Avtomobil qo'yish joyida nechta mashina qoldi?

78. Tekshiring:

1) Agar songa 1 qo'shilsa, undan keyingi son hosil bo'ladi:

$5+1=$

$8+1=$

$10+1=$

$12+1=$

2) Agar sondan 1 ayrilsa, undan oldingi son hosil bo'ladi:

$5-1=$

$8-1=$

$10-1=$

$12-1=$

79. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

$10+4=$

$10+2=$

$15-5=$

$13-3=$

80. Kerakli sonlarni qo'ying va misollar to'g'ri yozilgan-yozilmaganini tekshiring:

$4+6+1=11$


$7+\dots+1=11$

$5+\dots+4=14$

$3+\dots+2=12$

16 – 20 sonlari

1. Chapda nechta rediska bor? O'ngdagi rediskalar nechta? Rasmda hammasi bo'lib nechta rediska tasvirlangan? $10+6=16$




2. 15 ta cho'p va yana bitta cho'p oling. Qo'lingizdagi hamma cho'p nechta bo'ldi? $15+1=16$.

1 o'nlik bilan 6 birlik – bu 16 sonidir.

3. Bir satrga 16 sonini yozing

4. 16 soni cho'tda mana bunday solinadi:



12, 10, 15, 14, 11, 16 sonlarini cho'tga soling.

Har bir sonda nechta o'nlik bor? Nechta birlik bor?

5. 1 dan 16 gacha va teskarisiga sanang. 8 dan 16 gacha, 5 dan 12 gacha sanang. 16 dan 9 gacha, 13 dan 7 gacha teskari tartibda sanang.

6. 1 o'nlik va 2 birlikdan iborat sonni ayting va yozing, 1 o'nlik va 1 birlik, 1 o'nlik va 4 birlik, 1 o'nlik va 1 birlik, 1 o'nlik va 6 birlikdan iborat sonni ayting va yozing.

7. 12, 15, 10, 14, 16, 13, 11 sonlarida nechta o'nlik va nechta birlik bor? Bu sonlarning har birida hammasi bo'lib nechta birlik bor?

8. Sonlarni o'qing: 4, 15, 11, 3, 2, 16, 9, 10, 7, 13, 8, 5, 12, 1. Birinchi satrga bir xonali sonlarni yozing, ikkinchi satrga ikki xonali sonlarni yozing.

9. Misollarni yeching:

$4+3=$

$8+2=$

$10+4=$

$10+5=$

$10+6=$

$3+4=$

$2+8=$

$4+10=$

$5+10=$

$6+10=$

Misollarning har bir ustunidagi javoblarini taqqoslang nima uchun javoblar bir hil?

10. Qutichada 10 ta qalam bor edi. Qalamlar 16 ta bo'lishi uchun yana nechta qalam qo'shish kerak?

11. Qutichada 16 ta tugmacha bor edi. Qutichada 10 ta tugmacha qo'lishi uchun nechta tugmachani olish kerak?

12. Nima uchun tenglik ishorasi qo'yilgan?

$$10+6=6+10$$

$$10+3=3+10$$

$$10+2=2+10$$

$$15+1=1+15$$

$$13+1=1+13$$


$$11+1=1+11$$

13. Kitobning 15-beti ochilgan. Undan keyingi beti nechanchi? Undan oldingi bet nechanchi?

14. Bu yerda nechta o'ntalik cho'p bor? Alohida yotgan cho'plar nechta? Hamma cho'plar nechta? $10+7=$



15. Chapdagi kubiklar nechta? O'ngdagi kubiklar nechta? Hamma kubiklar nechta?




$$16+1=$$

16. Bir satrga 17 sonini yozing.

17. 16 sonini cho'tga soling. 17 sonini qanday qilib cho'tga solish kerak? Cho'tga soling.

18. 14, 15, 16, 17-topshiriqlarga qarang va 18 hamda 19 sonlarini tuzing.





19. 13, 16, 15, 17, 11, 18, 19 sonlarini yozing. Har bir sonda nechta o'nlik bor?

20. 1 dan 19 gacha bo'lgan hamma sonlarni yozing.

21. Birinchi satrga hamma bir xonali sonlarni yozing. Bu sonlarning har biriga bitta o'nlik qo'shing. Bu sonlarni ayting va ularni ikkinchi satrga yozing.

22. 1 o'nlik va 1 birlik,
1 o'nlik va 5 birlik,
1 o'nlik va 7 birlik,
1 o'nlik va 9 birlik,
1 o'nlik va 8 birlikdan iborat sonlarni ayting va yozing.

23. 9 ni cho'tga soling.

1 tadan tosh qo'shib

19 gacha sanang.

24. 19 ni cho'tga soling.

1 tadan toshni olib sanang.

25. Misollarni yeching:

$10+2=$

$10+5=$

$10+9=$

$10+4=$

$12-2=$

$15-5=$

$10-9=$

$14-4=$

$12+1=$

$15+1=$

$19+1=$

$14+1=$

$12-1=$

$15-1=$

$19-1=$

$14-1=$


26. 1 ta o'ntalik cho'p va yana 9 ta cho'p oling. Hamma cho'p nechta? Yana 1 ta cho'p qo'shing. Nechta cho'p bo'ldi? Yozing:
 $19+1=20$

Bir bog'lamga 10 tadan cho'p qilib bog'lang. Siz nechta bog'lam qildingiz?

Nechta o'ntalik cho'p bo'ldi. Hamma cho'p nechta? 20 sonida nechta o'ntalik bor? Yigirma sonida hammasi bo'lib nechta birlik bor?

27. Rasmda nechta qora kubik bor? ... kubik yoki 1 ta o'ntalik kubik. Rasmda nechta oq kubik bor?

...kubik yoki...kubik.
Hamma kubiklar nechta?




$$10+10=20$$


$$1 \text{ o'nlik} + 1 \text{ o'nlik} = 2 \text{ o'nlik.}$$

Bu sonda 2 ta o'ntalik bor. Alohida birliklar yo'q. Bunday yoziladi: 20

28. 20 sonini bir satrni to'ldirib yozing. Quydagicha yozing:




29. Rasmda nechta likop bor?



Birinchi likopda nechta o'ntalik tuxum bor? Ikkinchi likopda nechta o'ntalik tuxum bor?

Ikkala likopda hammasi bo'lib nechta o'ntalik tuxum bor? Likoplarda hammasi bo'lib nechta tuxum bor? Yana nimalar o'ntalab sanaladi?

30. Cho'tning pastki simiga 10 ta tosh va yuqoridagi simiga 1 ta tosh soling. Qaysi son hosil bo'ldi?



Pastki simdagi 10 ta toshni yuqori simdagi 1 ta tosh bilan almashtiring. Choʻtda 2 ta oʻnlik yoki 20 soni mana shunday solinadi.

19 sonini choʻtga soling. Qanday son hosil boʻldi? 10 birlikni 1 birlik bilan almashtiring.

Choʻtga 2 oʻnlik soling. Bu nechta birlik boʻladi?

31. 9, 10, 13, 15, 16, 18, 19, 20 sonlarini choʻtga soling va yozing. Har bir sonda nechta oʻntalik va nechta birlik bor?

32. 1 dan 20 gacha bittalab qoʻshib sanang, 20 dan 1 gacha bittalab ayirib sanang.

33. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20.

Shu qatordan hamma bir xonali sonlarni koʻchirib yozing. Eng katta bir xonali sonning tagiga chizing.

Bu qatordan hamma ikki xonali sonlarni koʻchirib yozing. Eng kichik ikki xonali sonni tagiga chizing.

Eng kichik ikki xonali son bilan eng katta bir xonali sonning yigʻindisini toping.

34. Qaysi sonlar yetishmayapti?

| | | | | | | | | | | | | | |
|----|--|--|----|---|--|--|--|----|----|--|--|--|----|
| 14 | | | 17 | 9 | | | | 14 | 15 | | | | 20 |
| 20 | | | | | | | | | | | | | |

35. Sanashda 20 sonidan oldin aytiladigan beshta sonni yozing.

Sanashda 10 sonidan keyin aytiladigan beshta sonni yozing.

10 va 20 sonlari osrasidagi istalgan beshta sonni yozing.

36. Misollarni yeching:

$19+1=$

$18+1=$

$17+1=$

$1+19=$

$1+18=$

$1+17=$

$20-1=$

$19-1=$

$18-1=$

$20-10=$

$19-10=$

$18-10=$

$15+1=$

$14+1=$

$16+1=$

$1+15=$

$1+14=$

$1+16=$

$16-1=$

$15-1=$

$17-1=$

$16-10=$

$15-10=$

$17-10=$

Masalalarni yeching

37. Karim bozordan 20 ta olma olib keldi. U ukasi bilan 10 tasini yedi. Karimda nechta olma qoldi?

38. Maktabni isitish uchun 10 mashina ko'mir va yana shuncha mashinada o'tin olib kelindi. Hammasi bo'lib necha mashina yoqilg'i olib kelingan?

39. To'pda 20 metr lenta bor. 10 m lenta qirqib olindi. To'pda necha metr lenta qoldi.

40. 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

11 12 13 14 15 16 17 18 19 20

Har bir ustundagi sonlarni taqqoslang. 2 sondan qaysi biri katta? Nima uchun?

41. Agar bir qo'shiluvchi ma'lum bo'lsa, ikkinchi qo'shiluvchini yozing.

3

8

4

9

4

9



2 va ...

2 va ...

2 va ...

2 va ...

2 va ...

2 va ...

15

18

14

19

16

20



10 va ...

10 va ...

10 va ...


10 va ...

10 va ...

10 va ...

42. Qalamning uzunligini chizg'ich bilan o'lchang.

Darhol 10 sm ni toping. 10 sm dan ortiq qancha kerak bo'lsa, yana shuncha qo'shing. Mana bunday: $10 \text{ sm} + 4 \text{ sm} = 14 \text{ sm}$. Ruchkaning uzunligini, daftarning enini, kitoblarga qo'yiladigan xat cho'pning uzunligini o'lchang.



43. Chizg'ichdan foydalanib 11 sm, 10 sm, 16 sm, 20 sm uzunlikdagi kesmalar chizing.

44. 10 sm va yana 2 sm ni chizg'ichdan ko'rsating. Hammasi necha santimetr?

45. 10 sm uzunlikda kesma chizing va uni yana 5 m (4 sm, 10 sm) uzaytiring. Bu kesmalar hammasi bo'lib necha santimetrga joylashdi?

46. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{lll} 9+1+4= & 8+2+3= & 7+3+7= \\ 5+5+9= & 3+7+8= & 2+7+1= \\ 12-2-4= & 11-1-6= & 13-3-7= \\ 20-10-5= & 17-10-7= & 14-10-2= \end{array}$$

47. Tikuvchida 19 m tasma bor edi. Palto uchun u 10 m tasmani qirqib oldi. Necha metr tasma qoldi?

48. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yozing.

$$18 \text{ m} + 1 \text{ m} \qquad 14 \text{ m} - 10 \text{ m}$$

49. 20 dan kichik, lekin 10 dan katta uchta son ayting. 10 dan katta, lekin 20 dan kichik 4 ta son ayting.

50. Sonlarni taqqoslang:

5 va 15, 9 va 19, 10 va 20, 6 va 16, 1 va 11, 3 va 13.

Har bir katta sonda nechta ortiq birlik bor? Har bir kichik sonda nechta o'nlik yetmaydi? Har bir juftdagi sonlar teng bo'lishi uchun nima qilish kerak?



51. Kalendarida qaysi sana yozilgan?

Haftaning qaysi kuni?

Kecha nechanchi sana va haftaning qaysi kuni edi?

Ertaga nechanchi sana va haftaning qaysi kuni bo'ladi?

52. Cho'tga soling

1) 10 birlik. Bu nechta o'nlik bo'ladi?

2) 1 o'nlik va 10 birlik bu nechta o'nlik bo'ladi?

3) 2 o'nlik. Bu nechta birlik bo'ladi?

53. Sonlarni yozing:

va

O'nliklar o'ng tomondan nechanchi o'ringa yoziladi? Birliklar o'ng tomondan nechanchi o'ringa yoziladi? Nima uchun bu sonlarda o'ng tomondan ikkinchi o'rinda 2 va 1 raqamlari turibdi? Ular nimani bildiradi? Nima uchun o'ng tomondan birinchi o'rinda 0 raqami turibdi? U nimani bildiradi?

54. 5 dan 20 gacha, 10 dan 20 gacha, 15 dan 20 gacha, 20 dan 15 gacha, 20 dan 10 gacha va 20 dan 5 gacha sanang.

55. Misollarni mana bunday yeching:

$15+1-10=6$

$14-10+1=5$

$16-10+1=$

$15+1=16$

$14-10=4$

$20-10+1=$

$16-10=6$

$4+1=5$

$12-10+1=$

$14+1-10=$

$15-10+1=$

$17-10+1=$

$12+1-10=$

$19-10+1=$

$11+1-10=$

$13-10+1=$

$16+1-10=$

$11-10+1=$

56. Masala. Bolalar bog'chasida bir hil miqdorda qizil va yashil koptoklar bor. Qizil koptoklar 10 ta. Yashil koptoklar nechta? Bolalar bog'chasida hammasi bo'lib nechta koptok bor?

57. Masala. Po'lat sinfda 10 ta misol yechdi va uyida yana 8 ta misol yechdi. Po'lat hammasi bo'lib nechta misol yechgan?

NAZORAT ISHI

1 – variant.

1. 1 dan 9 gacha bo'lgan hamma sonlarni birinchi satrga yozing. Bu sonlarni yozish uchun nechta raqam kerak bo'ladi. Bunday sonlar nima deb ataladi?

10 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni ikkinchi satrga yozing. Bu sonlarning har birini yozish uchun nechta raqam kerak? Bunday sonlar nima deb ataladi?

2. Tashlab ketilgan sonlarni ayting va yozing:

| | | |
|----|--|----|
| 11 | | 13 |
|----|--|----|

| | | |
|--|--|----|
| | | 17 |
|--|--|----|

| | | |
|----|--|----|
| 20 | | 18 |
|----|--|----|

3. Sonlarni taqqoslang va ularni $>$, $<$ yoki $=$ belgisi bilan birlashtiring. 11 va 13, 8 va 18, 19 va 20, 17 va 15, 10 va 10.

4. 15 sonidan keyin keladigan sonlarni yozing. 20 sonini yozing. Undan oldingi sonni yozing.

Sanashda 10 va 12 sonlari orasida aytiladigan sonni yozing.

5. Ushbu sonlarni o'qing va cho'tga soling: 14, 20, 13, 17. Bu sonlarning har birida nechta o'nlik va nechta birlik bor?

6. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{cccc} 10+8= & 17+1= & 10+10= & 10+4= \\ 8+10= & 1+17= & 20-10= & 4+10= \\ 18-8= & 18-1= & 10-10= & 14-10= \end{array}$$

7. Yetishmaydigan sonlarni va belgilarni o'rniga qo'ying?

$$19 - \dots = 10 \quad 17 \dots - 1 = 16 \quad \dots + 19 = 20$$

Masalalarni yeching.

8. Ona o'ramdan avval 10 m arqon, so'ngra yana 8 m arqon qirqib oldi. Ona hammasi bo'lib necha metr arqon qirqib olgan.

9. Magazinga 14 bo'chka tuzlangan bodring keltirildi. Birinchi kuni 4 bo'chka bodring sotildi. Necha bo'chka bodring qolgan?

10. Maktabni ta'mirlash uchun birinchi kuni 10 ta usta keldi. Ikkinchi kuni ularga yana 6 ta usta qo'shildi. Hammasi bo'lib nechta usta kelgan.

2 - variant.

1. 8 dan 20 gacha bo'lgan hamma sonlarni yozing. 19 dan 7 gacha bo'lgan hamma sonlarni yozing.

2. 1 o'nlik 4 birlik, 1 o'nlik 7 birlik, 1 o'nlikdan iborat sonlarni yozing.

3. 16 va 18 sonlari orasida turgan sonni yozing. Sanashda 13 sonidan oldin va 11 sonidan keyin aytiladigan sonni yozing.

4. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{cccc} 17+1= & 10+5= & 19-9= & 15-1= \\ 10-3= & 5+10= & 18-10= & 10-10= \end{array}$$

5. Sonlarni o'rniga qo'ying va misollarni to'g'ri yechilgan yoki yechilmaganini tekshiring:

$$10 + \dots = 17 \quad 19 - \dots = 10 \quad \dots - 7 = 10 \quad \dots + 10 = 20$$

Masalalarni yeching.

6. Donxo'rak yonida 15 ta qush bor edi. 5 ta qush uchib ketdi. Donxo'rak yonida nechta qush qoldi?

7. Katakda 12 ta oq va 1 ta kulrang quyvon bor. Katakda hammasi bo'lib nechta quyvon bor?

3- variant.

1. 10 dan 16 gacha bo'lgan hamma sonlarni yozing. Bu sonlarni teskari tartibda yozing.

2. 10 gacha to'ldiring.

| | | |
|---|---|---|
| 3 | 6 | ? |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| 4 | 3 | ? |
|---|---|---|

3. 1 o'nlikdan, 1 o'nlik va 5 birlikdan, 1 o'nlik va 1 birlikdan iborat bo'lgan sonlarni yozing.

4. 12, 14, 15 sonlarining har birida nechta o'nlik va nechta birlik bor?

5. Misollarni yeching:

$8+2=$

$9+1=$

$10+8=$

$9-3=$

$10-1=$

$15-5=$

Masalalarni yeching.

6. Donxo'rak yonida 10 ta musicha va 5 ta chumchuq bor. Donxo'rak yonida hammasi bo'lib nechta qush bor?

7. Valida 17 ta marka bor edi. U 2 ta markani Malikka berdi. Valida nechta marka qolgan?

20 ICHIDAGI SONLARNI O'NLIKDAN O'TMASDAN QO'SHISH VA AYIRISH

1. Misollarni yeching. Javobi 10 chiqadigan misollarni ko'chirib yozing.

$2+7=$

$10-8=$

$10-7=$

$7+3=$

$9-1=$

$6-6=$

$9+1=$

$2-2=$

$9-6=$

$5+5=$

$10-4=$

$10-9=$

$6+4=$

$9-9=$

$2+8$

$7-4=$

$5+3=$

$6-3=$

$3+7=$

$5-5=$

2. Men yig'indisi 10 bo'lgan ikkita son o'yladim. Bu qanday sonlar?

Quyidagi masalalarning yechilishini taqqoslang.

3. Donxo‘rak yonida
4 ta chittak qo‘nib turgan edi.
6 ta chittak uchib keldi.
Donxo‘rak yonida nechta
chittak bo‘ldi?

4. Donxo‘rak yonida
10 ta chittak qo‘nib turgan
edi. 6 ta chittak uchib
ketdi. Donxo‘rak yonida
nechta chittak qoldi?

5. Misollar tuzing va ularni yeching:

| | | | | | | | | | | | |
|-----------------------|----|----|----|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Birinchi qo‘shiluvchi | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |
| Ikkinchi qo‘shiluvchi | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |
| Yig‘indi | 10 | 10 | 10 | 9 | 9 | 9 | 8 | 8 | 8 | 7 | 7 |

| | | | |
|----------|---------|---------|---------|
| $5+5=10$ | $8+1=9$ | $6+2=8$ | $4+3=7$ |
|----------|---------|---------|---------|

6. Misollarni yeching.

| | |
|--------------------------------|-------------------------------|
| $9\text{ m} - 7\text{ m} =$ | $6\text{ m} + 4\text{ m} =$ |
| $6\text{ m} - 6\text{ m} =$ | $1\text{ m} + 9\text{ m} =$ |
| $10\text{ m} - 3\text{ m} =$ | $2\text{ m} + 7\text{ m} =$ |
| $8\text{ m} - 6\text{ m} =$ | $8\text{ m} + 1\text{ m} =$ |
| $8\text{ sm} - 8\text{ sm} =$ | $5\text{ sm} + 5\text{ sm} =$ |
| $7\text{ sm} - 5\text{ sm} =$ | $6\text{ sm} + 5\text{ sm} =$ |
| $10\text{ sm} - 6\text{ sm} =$ | $3\text{ sm} + 5\text{ sm} =$ |
| $6\text{ sm} - 3\text{ sm} =$ | $2\text{ sm} + 8\text{ sm} =$ |

7. 12, 17, 19, 20, 15, 13, 11, 16, 14, 18 sonlarini hosil qilish uchun o‘nlikka nechta birlik qo‘shish kerak?

8. Misollarni yeching:

| | | | |
|----------|----------|----------|----------|
| $10+5=$ | $10+7=$ | $10+9=$ | $10+1=$ |
| $5+10=$ | $7+10=$ | $9+10=$ | $1+10=$ |
| $15-5=$ | $17-7=$ | $19-9=$ | $11-1=$ |
| $15-10=$ | $17-10=$ | $19-10=$ | $11-10=$ |

9. Misollarni yeching:

$12 \text{ m} - 10 \text{ m} =$

$6 \text{ sm} + 10 \text{ sm} =$

$10 \text{ m} + 8 \text{ m} =$

$14 \text{ m} - 4 \text{ m} =$

$16 \text{ m} - 6 \text{ m} =$

$10 \text{ sm} + 3 \text{ sm} =$

$7 \text{ m} + 10 \text{ m} =$

$12 \text{ sm} - 10 \text{ sm} =$

10. Agar songa 1 qo'shilsa undan keyingi son hosil bo'ladi; agar sondan 1 ayrilsa undan oldingi son hosil bo'ladi. Misollarni yeching va ana shu qoidani tekshiring.

$15 + 1 =$

$16 - 1 =$

$12 + 1 =$

$17 - 1 =$

$14 - 1 =$

$15 - 1 =$

$16 + 1 =$

$12 - 1 =$

$17 + 1 =$

$14 + 1 =$

11. Safda 17 nafar yetakchi turgan edi. Yana 1 nafar yetakchi safga turdi. Safda qancha yetakchi bo'ldi?

12. Safda 19 nafar yetakchi turgan edi. Bir nafar safdan chiqdi. Safda qancha yetakchi qolgan?

13. Namunaga qarab qo'shing:

$12 + 3 = 15$

$10 + 2 + 3 = 15$

$10 + 4 =$

$11 + 5 =$

$14 + 3 =$

$17 + 2 =$

$18 + 1 =$

$16 + 2 =$

$13 + 3 =$

$11 + 1 =$

$15 + 2 =$

$13 + 4 =$

$16 + 1 =$

$12 + 5 =$

$11 + 7 =$

$10 + 9 =$

$12 + 7 =$

$10 + 10 =$

14. Sinfda 12 nafar qiz bola va 7 nafar o'g'il bola bor. Sinfda qancha o'quvchi bor?

15. Misollarni yeching. Har bir juftdagi misollarni taqqoslang. Nima uchun javoblar turlicha chiqdi?

$5 + 1 =$

$6 + 3 =$

$4 + 2 =$

$15 + 1 =$

$16 + 3 =$

$14 + 2 =$

$8 + 1 =$

$1 + 4 =$

$18 + 1 =$

$15 + 4 =$

$2 + 7 =$

$1 + 7 =$

$3 + 3 =$

$12 + 7 =$

$11 + 7 =$

$13 + 3 =$

$2 + 5 =$

$6 + 1 =$

$12 + 5 =$

$16 + 1 =$

16. Avtobusda 17 nafar yo'lovchi bor edi. Yana 2 nafar yo'lovchi avtobusga chiqdi. Avtobusda qancha yo'lovchi bo'ldi.

17. Stadion qurilishida 12 ta traktor va 4 ta yuk mashinasi kerak bo'ldi. Qurilishda hammasi bo'lib nechta mashina ishlagan?

18. Har bir juftdagi misollarni javoblarini tekshiring.

$$\begin{array}{cccc} 16+1= & 14+2= & 13+3= & 15+4= \\ 1+16= & 2+14= & 3+13= & 4+15= \end{array}$$

19. O'ng tomonga 11 ta doiracha qo'ying, chap tomonga 3 ta doiracha qo'ying. Hamma doiracha nechta?

O'ng tomonga 3 ta doiracha va chap tomonga 11 ta doiracha qo'ying. Hamma doiracha nechta?

11+3=14 Nima uchun bu misollarning

3+11=14 javoblari bir xil?

$$\begin{array}{ccc} 20. & 11+2= & 16+3= & 18+2= \\ & 2+11= & 3+16= & 2+18= \\ & 14+5= & 12+3= & 11+7= \\ & 5+14= & 3+12= & 7+11= \end{array}$$

Har bir juftdagi qaysi misolni yechish oson?

Katta songa kichik sonni qo'shish oson.

21. Qulayroq usuldan foydalanib, misollarni yeching:

$$\begin{array}{cccc} 1+15= & 2+14= & 8+11= & 3+16= \\ 12+3= & 4+15= & 12+5= & 2+11= \\ 4+13= & 7+12= & 6+13= & 14+2= \end{array}$$

Qo'shish amali + (plyus) ishorasi bilan belgilanadi.

Qo'shishdagi sonlar quyidagicha aytiladi:

$$\begin{array}{ccccccc} 12 & + & 3 & = & 15 \\ \text{Birinchi} & & \text{ikkinchi} & & \text{yig'indi} \\ \text{qo'shiluvchi} & & \text{qo'shiluvchi} & & \end{array}$$

22. Birinchi va ikkinchi qo'shiluvchini ayting hamda yig'indini toping.

$$\begin{array}{cccc} 1+1= & 3+5= & 4+3= & 7+2= \\ 11+1= & 13+5= & 14+3= & 17+2= \end{array}$$

23. Har bir juftdagi misollarning qo'shiluvchilarini taqqoslang. Yig'indini taqqoslang.

$$\begin{array}{ccccc} 16+1= & 14+2= & 13+3= & 15+4= & 11+7= \\ 1+16= & 2+14= & 3+13= & 4+15= & 7+11= \end{array}$$

Qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtirish bilan yig'indi o'zgarmaydi.

24. Ikkinchi sinfda 7 nafar qiz bola va 11 nafar o'g'il bola bor. Ikkinchi sinfda qancha o'quvchi bor?

25. Kiyim ilgichlarda 11 ta kattalar paltosi va 7 ta bolalar paltosi ilib qo'yilga. Kiyim ilgichlarda hammasi bo'lib nechta palto ilingan?

Bu masalalardan qaysi birini yechish oson? Nima uchun?

26. Misollar juftlari orasiga nima uchun tenglik ishorasi qo'yilganini tushuntiring.

$$17+2=2+17$$

$$8+11=11+8$$

$$16+3=3+16$$

27. Misollarni "plyus" so'zi bilan o'qing va ularni yeching:

$$2+17=$$

$$14+5=$$

$$11+5=$$

$$6+10=$$

$$15+3=$$

$$4+11=$$

$$1+18=$$

$$10+7=$$

$$16+1=$$

$$12+3=$$

$$17+2=$$

$$9+10=$$

$$4+15=$$

$$1+16=$$

$$3+13=$$

$$10+1=$$

28. Maktab uchastkasidan yetakchilar 12 yashik olma va 7 yashik nok uzishdi. Yetakchilar hammasi bo'lib necha yashik meva uzishgan?

29. Poyezdda 11 ta yo'lovchilar vagoni va 2 ta yuk tashuvchi vagon bor. Poezdda hammasi bo'lib nechta vagon bor?

30. Namuna bo'yicha misollar tuzing va ularni yeching.

$$5+4=$$

$$2+7=$$

$$1+8=$$

$$5+3=$$

$$15+4=$$

...

...

...

$$3+5=$$

$$3+3=$$

$$6+2=$$

$$1+6=$$

...

...



...

...

31. Misollarni yeching va hisoblaganlaringizni cho'tda tekshiring.

Masalan: $14+1=?$

$17+2=?$



$$14+3=$$

$$12+2=$$

$$5+11=$$

$$6+12=$$

$$6+11=$$

$$4+14=$$

$$12+6=$$

$$17+1=$$

$$15+11=$$

$$13+6=$$

$$7+12=$$

$$5+11=$$

32. Yetishmayotgan sonni o'rniga qo'ying va masalani yeching.

Konsertda 11 nafar qiz va ... nafar o'g'il bola ishtrok etdi.

Konsertda nechta bola ishtrok etgan?

33. Masalaga savol tuzing va uni yeching. Jonli tabiat burchagida 12 ta oq quyon va 6 ta kulrang quyon bor.

34. Namuna bo'yicha ayiring.

$16-5=11$

$18-4=14$

$15-2=13$

$16=10+6$

$18=10+8$

$15=10+5$

$6-5=1$

$8-4=4$

$5-2=3$

$10+1=11$

$10+4=14$

$10+3=13$

$15-4=$

$19-5=$

$11-1=$

$17-6=$

$19-8=$

$13-2=$

$14-2=$

$13-1=$

35. Fermada 14 ta traktor bor edi undan 2 tasi traktor ustaxonasiga jonatildi. Fermada nechta traktor qoldi?

36. Bizning ko'chamizda 12 qavatli uy qurilmoqda. 1-qavati qurildi yana necha qavat qurilishi kerak?

37. Yetakchilar bolalar bog'chasi uchun 18 ta stol yasab berishga qaror qilishdi va ular 7 ta stol yasashdi. Yetakchilar yana nechta stol yasashi kerak?

38. Valida 17 ta qarmoq bor edi. U 6 ta qarmog'ini Po'latga berdi. Valida nechta qarmoq qoldi?

39. Misollarni yeching. Har bir juftdagi misollarni taqqoslang. Nima uchun javoblari turlicha?

$7-2=$

$4-3=$

$9-8=$

$17-2=$

$14-3=$

$19-8=$

$9-3=$

$7-1=$

$5-4=$

$19-3=$

$17-1=$

$15-4=$

$6-5=$

$3-2=$

$4-2=$

$16-5=$

$13-2=$

$14-2=$

Quyidagi masalalarning yechilishini taqqoslang:

40. Bir to'pda 11 m gazlama, ikkinchisida 7 m gazlama bor. Ikkala to'pda hammasi bo'lib necha metr gazlama bor?

41. To'pda 18 m gazlama bor edi. Undan 7 m gazlama qirqib olindi. Necha metr gazlama qoldi?

Ayrish - (minus)

ishorasi bilan belgilanadi. Ayrishdagi sonlar quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{array}{rcccl} 16 & - & 1 & = & 15 \\ \text{Kamayuvchi} & & \text{ayriluvchi} & & \text{ayirma} \end{array}$$

42. Har bir misoldagi kamayuvchini, ayiriluvchini ayting va ayirmani toping.

| | | | |
|---------|---------|---------|---------|
| $5-2=$ | $6-3=$ | $7-4=$ | $8-5=$ |
| $15-2=$ | $16-3=$ | $17-4=$ | $18-5=$ |
| $5-3=$ | $6-4=$ | $7-5=$ | $8-3=$ |
| $15-3=$ | $16-4=$ | $17-5=$ | $18-3=$ |

Masalalarni taqqoslang va ularni yeching.

43. Vohidning 14 ta nishoni bor. Salim unga yana 5 ta nishon berdi. Vohidning nishonlari nechta bo'ldi?

45. Donxo'rak yoniga avval 12 ta qush kelib qo'ndi, so'ngra yana 6 ta qush kelib qo'ndi. Donxo'rak yonida qushlar nechta bo'ldi?

44. Vohidning 19 ta nishoni bor. U Karimga 5 ta nishon berdi. Vohidda nechta nishon bo'ldi?

46. Donxo'rak yonida 18 ta qush bor edi. 6 ta qush uchib ketdi. Donxo'rak yonida nechta qush qoldi?

47. Misollar tuzing va ularni yeching.

| | | | | | | | | | | |
|-----------------------|----|----|----|----|---|----|----|----|----|----|
| Birinci qo'shiluvchi | 12 | 5 | 14 | 12 | 6 | 7 | 10 | 6 | 8 | 11 |
| Ikkinchi qo'shiluvchi | 6 | 10 | 2 | 5 | 4 | 11 | 9 | 10 | 11 | 7 |
| Yig'indi | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

48. Yetishmaydigan sonni o'rniga qo'ying va masalani yeching.

Bir tokchada 12 ta kitob, ikkinchi tokchada ... kitob bor. Ikkala tokchada nechta kitob bor?

49. Masalaga savol tuzing va uni yeching.

Tokchada 15 ta kitob bor. Tokchadan 3 ta kitob olindi.

50. Misollarni yeching:

$$\frac{5+0=5}{0+6=}$$

$$9+0=$$

$$0+5=$$

$$\frac{10+0=10}{0+10=}$$

$$20+0=$$

$$0+20=$$

$$\frac{0+15=15}{0+14=}$$

$$0+19=$$

$$0+16=$$

51. Misollar tuzing va ularni yeching.

| | | | | | | | | | | | |
|------------|----|----|----|----|---|----|----|----|---|----|---|
| Kamayuvchi | 18 | 12 | 10 | 14 | 9 | 19 | 17 | 11 | 8 | 16 | 8 |
| Ayriluvchi | 2 | 10 | 8 | 1 | 9 | 10 | 5 | 10 | 7 | 4 | 6 |
| Ayirma | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

Masalalarni yeching. Bu masalalarning yechilishlarini taqqoslang

52. Vali 12 ta ilonbaliq va 4 ta laqqa baliq tutdi. Vali hammasi bo'lib nechta baliq tutdi?

53. Vali ilon baliq va laqqa baliqdan 16 ta tutdi. Onasi 4 ta laqqa baliqdan sho'rva pishirdi. Nechta baliq qo'ldi?

54. Misollarni yeching.

$12+7=$

$15+3=$

$14+4=$

$16+1=$

$7+12=$

$3+15=$

$4+14=$

$1+16=$

$19-7=$

$18-3=$

$18-4=$

$17-1=$

55. Qo'shish kerakmi yoki olish kerakmi?

$15...3=18$

$17...2=19$

$12...10=2$

$14...2=12$

$18...6=12$

$4...10=14$

$12...7=19$

$11...2=13$

$14...4=10$

56. Misollarni yeching.

$11+1=$

$12+1=$

$13+1=$

$14+1=$

$11+2=$

$12+2=$

$13+2=$

$14+2=$

$11+3=$

$12+3=$

$13+3=$

$14+3=$

$11+4=$

$12+4=$

$13+4=$

$14+4=$

$15+1=$

$16+1=$

$15+2=$

$16+2=$

$15+3=$

$16+3=$

$15+4=$

$16+4=$

57. Qaysi biri katta? Qaysi biri kichik? 15+1 mi yoki 16-1 mi? quyidagicha yozing:

$15+1 > 16-1$

$18+2$ yoki $17+3$

$14-2$ yoki $18-2$

$16+3$ yoki $16+4$

$16-4$ yoki $18-6$

$11+7$ yoki $12+5$

$20-7$ yoki $18-6$

58. Bog'dan sotish uchun shaharga 10 yashik olma va 6 yashik nok jo'natildi. Bog'dan hammasi bo'lib nech yashik meva jo'natildi?

59. Po'chtalon 12 ta oddiy hat va 6 ta buyurtirilgan hat tarqatdi. Po'chtalon hammasi bo'lib nechta xat tarqatdi?

60. Bo'chkada 16 chelak suv bor edi. Ekinlarni sug'orish uchun 6 chelak suv ishlatildi. Bo'chkada qancha suv qoldi?

61. Misollar tuzing va ularni yeching:

| | | | | | | | |
|-----------------------|----|----|----|----|----|----|----|
| Birinchi qo'shiluvchi | 12 | 15 | 13 | 16 | 11 | 14 | 17 |
| Ikkinchi qo'shiluvchi | 1 | 3 | 2 | 3 | 0 | 5 | 2 |
| Yig'indi | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

| | | | | | | | |
|-------------|----|----|----|----|----|----|----|
| Kamayuvchi | 17 | 19 | 18 | 11 | 15 | 16 | 13 |
| Ayiriluvchi | 3 | 8 | 10 | 1 | 4 | 2 | 3 |
| Ayirma | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

62. Uzunliklari 12 sm, 10 sm va 14 sm bo'lgan 3 ta kesmani bir birining ostiga chizing. Har bir kesmani 3 smdan davom ettirsangiz qanday uzunlikdagi kesmalar hosil bo'ladi?

63. $11+5=$ $11+6=$ $11+7=$

$12+5=$ $12+6=$ $12+7=$

$13+5=$ $13+6=$ $16+2=$

$11+8=$ $17+2=$ $12+0=$

$13+0=$ $16+3=$ $17+1=$

64. Misollarni yeching.

$19-1=$ $19-2=$ $19-3=$ $19-4=$

$19-7=$ $19-8=$ $18-1=$ $18-2=$

$18-5=$ $18-6=$ $18-7=$ $19-9=$

$17-2=$ $17-3=$ $17-4=$ $17-5=$

$19-5=$ $19-6=$ $18-8=$ $17-1=$

$18-3=$ $18-4=$ $17-6=$ $17-7=$

65. Nodirada 15 ta daftar bor edi. U 10 ta daftarini dugonasiga berdi. Nodirada nechta daftar qoldi?

66. Yosh tabiatshunoslar 19 qop sabzi yig'ishdi. Undan 6 qopi karam tuzlashda ishlatildi. Necha qop sabzi qolgan?

67. Sinfda 14 o'quvchi bor edi. Birinchi chorakning ohirida yana 4 nafar o'quvchi qo'shildi. Sinfda jami qancha o'quvchi bo'ldi?

68. Tikuvchilik ustaxonasi uchun 3 to'p satin sotib olindi. Birinchi to'pda 10 m satin, ikkinchi to'pda 4 m, uchinchi to'pda esa ikkinchi to'pda qancha bo'lsa shuncha satin bor. Uchala to'pda necha metr satin bo'lgan?

69. Jadvalni namunaga qarab to'ldiring:

$$12+1+5=18$$

| | | | | | | | | |
|-----------------------|----|---|----|----|----|----|----|----|
| Birinchi qo'shiluvchi | 12 | 7 | 10 | 11 | 13 | 15 | 9 | 14 |
| Ikkinchi qo'shiluchi | 1 | 3 | 5 | 6 | 2 | 1 | 1 | 3 |
| Uchinchi qo'shiluvchi | 5 | 8 | 2 | 1 | 4 | 0 | 10 | 1 |
| Yig'indi | 18 | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |

70. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{lll}
 16-1= & 16-2= & 16-3= & 16-4 \\
 15-1= & 15-2= & 15-3= & 15-4= \\
 14-2= & 14-3= & 14-4= & 13-1= \\
 12-1= & 12-2= & 11-1= & 12-10= \\
 16-5= & 16-6= & 13-2= & 13-3= \\
 15-5= & 14-1= & 14-10= & 16-10=
 \end{array}$$

71. Qo'shishga doir masalalar tuzing va ularni yeching:

- a) chug'urchuqlar, zag'izg'onlar va chittaklar haqida:
 b) ilon baliqlar, laqqa baliqlar va cho'rtan baliqlar haqida.

72. Misollarni quydagicha yeching:

| | | | | | | | | | |
|----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 | 10 |
| 1 | ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... |

$$17 + 3 = 20$$



10 va 7

$$10 + 7 + 3 = 20$$

$$\begin{array}{llll}
 7+3= & 8+2= & 9+1= & 6+4= \\
 17+3= & 18+2= & 19+1= & 16+4= \\
 3+7= & 2+8= & 1+9= & 4+6= \\
 13+7= & 12+8= & 11+9= & 14+6= \\
 5+5= & 15+5= & 5+0= & 15+0=
 \end{array}$$

73. Bir to'pda 12 ta katak daftar va 8 ta bir chiziqli daftar bor. To'pda hammasi bo'lib nechta daftar bor?

74. 4 yashik nok va 16 yashik olma sotildi. Hammasi bo'lib necha yashik meva sotilgan?

75. 20 gacha to'ldiring.

| | | | | | | | | | |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 | 10 |
| 1 | . | . | . | . | . | . | . | . | . |

Misollarni mana bunday yeching.

$$20 - 4 = 16$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 10 \text{ va } 10 \end{array}$$

$$10 + 10 - 4 = 20$$

$10-1=$

$10-2=$

$10-3=$

$20-1=$

$20-2=$

$20-3=$

$10-6=$

$10-7=$

$10-8=$

$20-6=$

$20-7=$

$20-8=$

$10-4=$

$10-5=$

$20-4=$

$20-5=$

$10-9=$

$10-10=$

$20-9=$

$20-10=$

77. Bir to'pda 20 ta daftar bor. Bularni ichida katak daftarlar nechta, bir chiziqli daftarlar nechta bo'lishi mumkin? Javoblarini jadvalda quyidagicha yozing:

| | | | | | | | | | | |
|---------------------|----|---|----|----|----|----|---|---|----|----|
| Bir chiziqli daftar | 11 | 3 | 17 | 14 | 6 | 12 | 8 | 5 | 20 | 19 |
| Katakli daftar | 9 | ? | ? | ? | 14 | ? | ? | ? | ? | 1 |

$$17 + 3 = 20$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 10 \text{ va } 7 \end{array}$$

$$10 + 7 + 3 = 20$$

78. Misollarni yeching:

$16-10-3=$

$20-10-5=$

$12-10-1=$

$20-5-10=$

$14-10-4=$

$20-7-3=$

$12-2-6=$

$17-7-5=$

$13-3-2=$

$19-9-7=$

$15-5-10=$

$11-1-9=$

79. Misollarni quyidagicha yeching:

$$16-13=3$$

$$\begin{array}{c} \diagup \\ 10 \text{ va } 3 \\ \diagdown \end{array}$$

$$16-10-3=3$$

$$20-12=8$$

$$\begin{array}{c} \diagup \\ 10 \text{ va } 2 \\ \diagdown \end{array}$$

$$20-10-2=8$$

$14-12=$

$19-11=$

$18-13=$

$17-16=$

$20-17=$

$20-15=$

$20-19=$

$20-11=$

$15+5=$

$14+6=$

$8+12=$

$7+13=$

$20-8=$

$20-9=$

$20-1=$

$20-7=$

$15+2=$

$14+4=$

$17+3=$

$16-5=$

80. Bizning sinfdagi 18 nafar o'g'il bola bor. Sayr qilish vaqtida 12 nafar bola chana uchdi, qolgan bolalar konkda uchishdi. Nechta bola konkda uchgan?

81. Ovchi sotuvchiga 17 ta quyon terisi va 3 ta tulki terisi sotdi. Ovchi hammasi bo'lib nechta teri sotgan?

82. Maktab oshxonasiga 16 ta tarvuz keltirildi. Tushlik vaqtida bolalar 12 ta tarvuz yeyishdi. Nechta tarvuz qolgan?

83. Misollarni yeching. Har bir juftdagi misollarni taqqoslang. Nima uchun javoblari bir xil?

$15+5=$

$8+12=$

$14+5=$

$5+15=$

$12+8=$

$5+14=$

84. Misollarni yeching:

$12 \text{ m} + 8 \text{ m} =$

$20 \text{ m} - 5 \text{ m} =$

$6 \text{ m} + 13 \text{ m} =$

$20 \text{ sm} - 14 \text{ sm} =$

$12 \text{ sm} + 6 \text{ sm} =$

$18 \text{ sm} - 3 \text{ sm} =$

85. Namuna bo'yicha misollar tuzing va ularni yeching:

$14+3=$

$3+14=$

$17-3=$

$17-14=$

$12+5=$

...

...

...

...

$18+2=$

...

...

...

...

$13+3=$

...

$17+3=$

...

$19+1=$

...

86. Misollarni yeching.

$10-5=$

$10-7=$

$9-8=$

$20-5=$

$20-7=$

$19-8=$

$20-15=$

$20-17=$

$19-18=$

$5-5=$

$7-4=$

$15-5=$

$17-4=$

$15-15=$

$17-14=$

Misollarni yeching va ularni taqqoslang:**87.** Maktabni tamirlash

uchun 10 banka sariq

bo'yoq va yana shuncha qi-

zil bo'yoq olindi. Hammasi

bo'lib necha banka bo'yoq

olingan?

89. Sirk maydonida 10 ta

yo'lbars va 2 ta sher tomosha

ko'rsatdi. Tomoshada

hammasi bo'lib nechta

ishtirok etgan?

88. Maktabni tamirlash

uchun 20 banka bo'yoq

olindi. Birinchi kuni

6 banka bo'yoq ishlatilgan.

Hammasi bo'lib necha

banka bo'yoq qolgan?

90. Sirk maydonida 12

ta hayvon tomosha ko'r-

satdi va tomosha tugaganidan

so'ng ularning hammasi hayvon

maydondan chiqib ketishdi.

Maydonda nechta hayvon

qolgan?

91. 20 dan ayiring.

$20-1=$

$20-5=$

$20-9=$

$20-2=$

$20-6=$

$20-10=$

$20-3=$

$20-7=$

$20-11=$

$20-4=$

$20-8=$

$20-12=$

$20-13=$

$20-17=$

$20-14=$

$20-18=$

$20-15=$

$20-19=$

$20-16=$

$20-20=$

92. Ikki sonning yig'indisi 20 ga teng. Qo'shiluvchilar qanday sonlar bo'lishi mumkin?**93. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching.**

$13+5=$

$5+13=$

$18-5=$

$18-3=$

$18-18=$

94. Qo'shish kerakmi yoki ayirish?

$15 \dots 5 = 20$

$14 \dots 14 = 0$

$12 \dots 12 = 0$

$5 \dots 12 = 17$

$7 \dots 11 = 18$

$20 \dots 14 = 6$

$2 \dots 10 = 12$

$20 \dots 10 = 10$

$17 \dots 17 = 0$


$10 \dots 10 = 20$

$15 \dots 3 = 18$

$16 \dots 6 = 10$

95. Misollar tuzing va ularni yeching.

96. Bir ayol 20 ta tuxum sotib oldi. 10 ta tuxumni ovqatga ishlatdi. Nechta tuxum qoldi?



97. Avtomobil qo'yish joyida 18 ta mashina bor edi. Ertalab bu mashinalarning hammasi ko'chalarni tozalash uchun chiqib ketishdi. Avtomobil qo'yish joyida nechta mashina qolgan?

98. Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

$12+7=$

$7+12=$

$19-9=$

$19-19=$

99. Men ikkita son o'yladim, ularning yig'indisi 15 ga teng. Bu sonlar qanday sonlar bo'lishi mumkin?

100. Ikkita qutichada 18 ta qalam bor. Har bir qutichada nechta qalam bo'lishi mumkin? Jadvalga yozing.

| | | | | | | | | |
|------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Birinchi quticha | 14 | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |
| Ikkinchi quticha | 4 | ? | ? | ? | ? | ? | ? | ? |
| Hammasi | 18 | 18 | 18 | 18 | 18 | 18 | 18 | 18 |

NAZORAT ISHI

1 - variant.

1. Misollarni yeching:

$10+5=$

$12+1=$

$14+3=$

$14-10=$

$17-1=$

$19-5=$

$16+4=$

$12+8-7=$

$20-18=$

$18-6-10=$

2. Misollar tuzing va ularni to'g'ri yechilgan-yechilmaganini tekshiring:

$20 - \dots = 20$

$\dots - 6 = 10$

$10 + \dots = 19$

$\dots - 15 = 0$

$\dots - 13 = 5$

$12 + \dots = 17$

3. Yetakchilarning ikki guruhi yirtilgan kitoblarni yelimplashdi. Birinchi guruh 11 ta kitob yelimpladi. Ikkinchi guruh 9 ta kitob yelimpladi. Yetakchilar hammasi bo'lib nechta kitob yelimplagan?

2 - variant.

1. Misollar yeching:

$10+4=$

$15-3=$

$20-13=$

$15+5=$

$20-6=$

$18-10=$

2. Gulxan atrofida yetakchilar o'tirishibdi. Ularning 12 nafari o'g'il, 6 nafari qiz bola. Gulxan atrofida hammasi bo'lib nechta yetakchi o'tiribdi?

3. Dalada 17 ta kombayn ishlayapti. 3 ta kombayn ishini tugatdi. Masalaga savol tuzing va uni yeching.

3 - variant.

1. Misollarni yeching.

$8-4=$

$10-7=$

$4+6=$

$14+5=$

$9-9=$

$7-5=$

$1+8=$

$17-7=$

2. Pastki tokchada 10 ta kitob, yuqoridagi tokchada 2 ta kitob bor. Ikkala tokchada hammasi bo'lib nechta kitob bor?

3. Maktab oshxonasida 16 ta stol bor. Navbatchi 6 ta stolni tushlikka tayyorladi. Yana nechta stol tayyorlashi kerak?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Karimov. I. A.** “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir.” Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasidan. 06.12.2013.

2. **Perelman.Y. I.** “Qiziqarli matematika” – T:“Sharq” 2010-y.

3. **E. E. Jumayev.** “Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi.” Turon Iqbol, 2014-y.

4. **Axmedov. M., Abdurahmonova N., Jumayev M.** “1-sinf matematika darsligi.” Turon Iqbol. 2009-y.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Soʻz boshi | 3 |
| 1-§. Birinchi oʻnlik | 4 |
| Masalalarni eching va ularning yechilishlarini tekshiring.... | 10 |
| Toʻgʻri chiziq. Kesma..... | 22 |
| 2-§. Ikkinchi oʻnlik | 26 |
| 20 ichidagi sonlarni oʻnlikdan oʻtmasdan qoʻshish va ayirish.. | 45 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 60 |

M. SH. ABDULLAYEVA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI
O'QITISHDA MISOL VA MASALALAR YECHISH**
(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari uchun
uslubiy qo'llanma)

Muharrir
Texnik muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Ahmadjon Axlimirzayev
Bahodirjon Hoshimov
Nilufar Yuldashyeva
Qumriniso Ashurova

Noshirlik lisenziyasi AI № 175. 11.06.2010 yil.

Bosmaxonaga 2015-yil 28-sentabrda berildi. Bosishga 2015-yil 19 oktabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 3,9 bosma toboq. Nashriyot tobog'i 2,7. Times New Roman
garnitursi, ofset qog'ozi, ofset usulida chop etildi. Buyurtma № 0001642. Adadi 150 nusxa.

“Andijon nashriyot-matbaa” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy.